

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**



**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

«TASDIQLAYMAN»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, i.f.n., dotsent
F.B.Ahrorov
«___» ____ 2014 yil

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasи
5610100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Fermer xo'jaliklarida sabzavot ishlab chiqarish rentabelligi tahlili
va uni oshirish imkoniyatlari” (Tayloq tumani fermer xo'jaliklari misolida)

Bajardi: 5610100-«Fermer xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi
4-bosqich talabasi

Musurmonov Jasurbek

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi

Ya.Xojiyev

Ilmiy maslahatchi: dotsent

F.Ahrorov

Bitiruv malakaviy ish
muhokama qilindi va himoyaga
ruxsat berildi

Kafedra mudiri, i.f.d.

A.Alikulov

«___» ____ 2014 yil

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR	
SHARHI.....	7
2. QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH RESURSLAR VA	
ULARNING HOZIRGI HOLATI.....	15
2.1. Yer resurslari va ulardan oqilona foydalanish	15
2.2. Moddiy-texnika resurslari va ulardan oqilona foydalanish.....	19
2.3. Mehnat resurslar va ulardan oqilona foydalanish.....	22
3. FERMER XO'JALIKLARIDA SABZAVOT ISHLAB CHIQARISH	
RENTABELLIGI VA UNING HOZIRGI HOLATI.....	25
3.1. Rentabellik tushunchasi, turlari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash	
usullari.....	25
3.2. Fermer xo'jaliklarida sabzavot ishlab chiqarish rentabelligining hozirgi	
holati tahlili	34
3.3. Fermer xo'jaliklarida sabzavotchilikda rentabellikning omilli tahlili	38
4. FERMER XO'JALIKLARIDA SABZAVOT ISHLAB CHIQARISH	
RENTABELLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	42
4.1. Sabzavotchilikda moddiy xarajatlarni pasaytirish imkoniyatlaridan	
foydalanish.....	42
4.2. Sabzavotchilikda mahsulot miqdori va sifatini oshirish imkoniyatlari.....	49
4.3. Sabzavotchilikda rentabellikni oshirish yo'llari.....	56
5. FERMER XO'JALIKLARIDA SABZAVOT ISHLAB	
CHIQARISHDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH.....	61
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	72

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sohasida bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar bo'yicha mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini oldida to'rgan eng asosiy vazifalardan biri ishlab chiqarishning barqaror ishlashini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir.

Prezidentimiz o'z maruzalarida "...2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Mamlakatimizda ichki mahsulotning umumiyligi hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. O'tgan 2013-yilda fermerlarimizning mehnati bilan mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi..."¹ – deb takidlab o'tdilar.

O'zbekiston sharoitida sabzavot va ularni qayta ishlab chiqarishdan olingan asosiy mahsulotlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish xalq xo'jaligida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rurasiga //Xalq so'zi. 18.01.2014.

muhim ahamiyatiga ega. Sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida nisbatan juda katta hajmda mehnat, yer-suv va buyumlashgan moddiy va intellektual resurslardan keng foydalaniladi. Tarmoqdagi resurslardan samarali foydalanish orqali xalqimizning mehnat qilish va yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash imkoniyatini yaratish, bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov bu masalaga katta e'tibor berib, «Maqsad-qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirish, qishloqda yashayotgan xalqimizning xayot darajasini ko'tarish, ular uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lmosg'i kerak» -degan edi.

Qishloq xo'jaligida sabzavotchilik muhim tarmoqlardan biri hisoblanib, uning mamlakat xalq xo'jaligida o'rni beqiyos shu sababli barcha tumanlar sabzavotchilik bilan shug'ullanadi. Har yili o'rtacha mamlakatimizda 161,5 ming hektar maydonda 521740 tonna sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi.

Sabzavot mahsulotlari hamma mamlakatlarida yetishtiriladi. Har bir kishining yillik sabzavot iste'mol qilishi o'rtacha 60 kg ni tashkil etib, bu fiziologik me'yordan ko'pchilik davlatlarda 1,5-3 baravar kamdir.

Respublikamizda har bir sabzavot ekinlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi salmog'i ham o'zgarmoqda. Hozirgi paytda umumiyligi sabzavot ekinlar maydonining 35-38 foizini pomidor, 15-17 foizini -karam, 18-20 foizini piyozi va sarimsoq, 4-6 foizini - sabzi, 8-10 foizini - bodring, 2-3 foizini - lavlagi, 9-10 foizini - boshqa sabzavot ekinlari (rediska, boyimjon, qalampir, kabachka, patisson, ko'katlar) egallaydi.

Viloyatimizda 2011 yilda 31172 hektar maydonga sabzavot ekinlari ekilib, ularning o'rtacha xosildorligi 212,7 s/gani tashkil etib, 663149 tonna sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, 2013 yilda 27036 hektar maydonga sabzavot ekinlari ekilib, o'rtacha xosildorlik 213,6 s/gani tashkil etib, 577441 tonna sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan.

Tadqiqot obyekti bo'lgan Samarqand viloyati Tayloq tumanida 2011 yilda 3800 hektar maydonda sabzavot yetishtirib, har hektardan o'rtacha 204,5 s/gadan, jami 77695 tonna hosil olinib, rentabellik 37,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013

yilda 4085 hektar maydonda sabzavot yetishtirib, har hektardan o'rtacha 221,3 s/gadan, jami 90419 tonna hosil olinib, rentabellik 38,9 foizni tashkil etgan.

Ushbu erishilgan yutuqlarga qaramasdan, tuman fermer xo'jaliklarida har hektar ekin maydonidan samaradorli foydalangan xolda ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha tannarxni pasaytirish omillari to'g'risida keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda, qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot tannarxni pasaytirish uchun mahalliy xom-ashyo va materiallardan foydalanish darajasini oshirish, materiallar sarfi me'yorlarini pasaytirish kabi asosiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Sabzavot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan birga, uning sifatini yaxshilash, tannarxini pasaytirish, sotishdan olinayotgan foyda miqdorini ko'paytirish sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki, hozirgi kunda mahsulot tannarxini pasaytirish, olinayotgan foyda miqdorini ko'paytirish bilan birga, fermer xo'jaliklarlarini iqtisodiyotini mustahkamlashga, ishlab chiqarishni modernizasiyalashga, qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishlovchilarining moddiy manfaatdorligini oshishiga olib keladi.

Sabzavotchilik va u bilan bevosita bog'liq qayta ishlash tarmoqlarining ishlab chiqarish rentabelligini oshirish orqali qishloq va shaharda mehnatga yaroqli aholidayan samarali foydalanish orqali aholi turmush darajasining ko'tarilishiga real sharoit yaratiladi. Lekin, qishloq xo'jaligida sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda 1 s sabzavot ishlab chiqarishga sarflanayotgan moddiy resurslar samarali foydalangan holda uni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarini kamaytirish, tayyorlanadigan sabzavot sifatini oshirish va sotish baholarini takomillashtirish hamda fermerlarning moddiy manfaatdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi - fermer xo'jaliklarida sabzavot ishlab chiqarish rentabelligini tahlil qilish va uni oshirish imkoniyatlaridan

foydalananish yo'llariga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Qo'yilgan maqsad quyidagi vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi:

Bitiruv malakaviy ishida tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- fermer xo'jaliklarining resurslar bilan ta'minlanish holatini tahlil qilish;
- fermer xo'jaliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- fermer xo'jaliklarida sabzavot ishlab chiqarish rentabelliginining hozirgi holati tahlilini o'rghanish;
- sabzavot sabzavot ishlab chiqarish rentabelligini oshirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

Mazkur malakaviy bitiruv ishida Tayloq tuman fermer xo'jaliklari misolida o'r ganilgan.

Malakaviy bitiruv ishini yozishda mavzuga tegishli qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, maruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar, agrar soha iqtisodchi olimlarining asarlari, maqolalari, Tayloq tuman fermer xo'jaliklarining 2011-2013 yillar hisobotlaridan, rejalaridan hamda tahlil ma'lumotlaridan, mutaxasislarning xulosalaridan foydalanilgan. Bu ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish ahamiyati hisoboti, kurs ishlari bajarilgan va himoya etilgan.

Quyi qismda nazariy va uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan maxsus adabiyotlarga sharx yozishga xarakat qilingan.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Sabzavot sabzavot ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, uning tannarxini pasaytirish borasida qator iqtisodchi olimlarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Ammo, sabzavot ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda mahsulot tannarxini xarajatlar moddalari, sotish jarayonlarini xom ashyo ishlab chiqarish bilan bog'lagan xolda o'rganish bozor munosabatlарining shakllanishi va takomillashuvi jarayonida aloxida e'tiborni talab qiladi.

Mamlakatimizda qator olimlarning sabzavot mahsulotlari tannarxini pasaytirish borasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Quyida malakaviy bitiruv ishini bajarish davomida foydalanilgan ayrim adabiyotlarga sharh berib o'tamiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida. (yangi tahrirda). 26.08.2004.

Ushbu qonunning maqsadi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 3-moddasida «Fermer xo'jaligi ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir» deb ta'rif berilgan.

2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirish taqozo etiladi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarida keng va batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari, kelib chiqish sabablari, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, mazkur inqiroz oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar bayon qilib berilgan. Shuningdek,

mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lishiga qaramay 2008 yilda erishilgan ijobiy natija va yutuqlar baholanib, respublikamizdagi iqtisodiy salohiyatdan yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Prezidentimizning ushbu asarlarida belgilab berilgan O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etilishini taqozo etadi.

3. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.//Xalq so'zi. 18.01.2014.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining nutqida YaIMning o'sishiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmini oshirish mavzusiga to'xtalib o'tadi. Mazkur nutqda ham, jumladan, shunday fikrlarni bildirib o'tadi: "...“...Ruxsatingiz bilan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga alohida to'xtalmoqchiman.

Avvalo, quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiyligi hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmogda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqr tarkibiy o‘zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig‘i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo‘jaligining o‘zida keng ko‘lamli o‘zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo‘lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko‘paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlashga zamin tug‘dirdi, kerak bo‘lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g‘alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go‘sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O‘tgan 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko‘rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g‘alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Fursatdan foydalanib, bugun mana shu yuksak minbardan turib, o‘zining peshona teri, qadoq qo‘llari bilan mamlakatimiz boyligiga boylik qo‘shayotgan, el-yurtimiz farovonligini ta’minlayotgan barcha qishloq mehnatchilariga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqr minnatdorlik va hurmat-ehtirom bildirishni ham qarz, ham farz, deb hisoblayman”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Nizomi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarни shakllantirish tartibi to’g’risida. - №54, 5.02.1999.

Ushbu Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'limgan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi. Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshliliginani aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo'li bilan aniqlanadi.

5. Dehqonov M. Fermer xo'jaliklarida tannarxni pasaytirish omillari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№ 5 -b. 30 .

Ushbu maqolada dexqonchilikda xarajatlarning qoplanish darajasiga mahsulot birligi tannarxi va sotish bahosi qay darajada bog'liqligini o'rGANIB, bunda regressiya usulini qo'llash lozimligini bayon etirilgan. Regressiya koeffisiyentining mutlaq sonlarini solishtirganda har bir sentner maxsulotning tannarxi omillar orasida eng muhimi ekanligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, maxsulot tarkibidagi xarajat moddalarining maxsulot tannarxiga qaydarajada ta'sirini va omillarning ta'sirini taxlil qilish yollarini ko'rsatib utadi.

6. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

Ushbu darslik 4-bo'lim, 33-bobdan iborat bo'lib, darslikning birinchi bo'limi qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining umumiy masalalari, ikkinchi bo'limi qishloq xo'jaligi resurslari va ulardan samarali foydalanish, uchinchi bo'limi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi va to'rtinchi bo'limi o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari samaradorligini oshirish imkoniyatlariga bag'ishlanadi.

7. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish.
–T.: Istiqlol, 2004.

Ushbu darslikda qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish munosabatlarining dolzARB masalalari, turli xil mulk shaklidagi korxonalarning tashkiliy – xo'jalik asoslari, xususan fermer xo'jaliklarining yangi konsepsiysi asosida shakllantirish va rivojlantirish ishlab chiqarishda tashkil etishda ijara munosabatlari va oila (jamoa) pudratining o'rni, mehnatga haq to'lashning yangi tizimi, xo'jalik yuritish mexanizmlarini tashkillashtirish xo'jalik yuritish tizimi va chorvachilik tarmoqlarida tashkiliy iqtisodiy asoslari, biznes rejalashtirishni takomillashtirish va shunga o'xhash dolzARB muommalarni o'rganishning nazariy va amaliy asoslari aks ettirilgan.

8. Mullajonov A. Meva-sabzavotchilik va sabzavotchilik sohasini rivojlantirish, ularni qayta ishlash va unda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha vazifalar. –Samarqand, 2009.

Ma'ruzada respublikamiz hududlarida 2009 yilda 9,4 mln.tonnadan ortiq meva-sabzavot, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilib, 471,8 ming tonnasi eksport qilingani, ularning 75,7% ho'l, 10,6% quritilgan va 13,7% qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlariga to'g'ri kelganligi, eksport hajmlarining asosiy qismi Rossiya Federasiyasiga-82,8%, Afg'oniston (3,8%), Qozog'iston (2,3%), Turkiya (2%), Ukraina (1,7%), Eron (1,2%) va Turkmaniston (1%) kabi davlatlarga to'g'ri kelganligi ta'kidlangan.

9. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O.Q. Sabzavotchilik. Darslik. – T.: 2009. – 460 b.

Darslikni yozishda mustaqillik yillarida dunyo va respublika qishloq xo'jalik fani, texnikasi va ilg'orlari erishgan yutuqlar muallif tomonidan hisobga olinib, har bir sabzavot ekinining ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, botanik ta'rifi, biologik hususiyatlari, Davlat reyestriga kiritilgan va keng tarqalgan nav-geterozisli duragaylar ta'rifi, hosildan foydalanish sohasiga qarab o'stirish texnologiyasining unsurlariga katta e'tibor berilgan. Mualliflar unda so'nggi jahon va respublika qishloq xo'jalik fani, texnikasi va ilg'orlari erishgan yutuqlarni hisobga olib, har

bir sabzavot ekinining ahamiyati, botaniq ta'rifi, biologiyasi, rayinlashgan hamda keng tarqalgan nav-duragaylar ta'rifi, o'stirish texnologiyasigga katta e'tibor bergen.

10. Ostonaqulov T.E., Obloqulov D.D. Takroriy ekin sifatida pomidor yetishtirish texnologiyasi. –T.: 2008. -118 b.

Mazkur qo'llanmada mamlakatimizda bir yilda 2-3 marta sabzavot yetishtirish imkoniyatlari mavjudligi, jumladan, g'alla maydonlariga takroriy ekin sifatida pomidor yetishtirish va uning texnologiyasi haqida fikr yuritilib, pomidor yetishtirishda e'tibor qaratish mumkin bo'lgan, iqtisodiy jihatdan samarali yetishtirish usullari e'tirof etilgan.

11. Qudratov T., Qudratova O., Fayziyeva N., Qudratova I. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. O'quv qo'llanma. –Samarqand, 2008.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni yanada samarali rivojlantirish uchun ularning faoliyatini barcha tomonlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlar va ularning natijalarini har taraflama chuqur o'rganish natijasida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni ishlab chiqarishga jalb etish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish zarur. Ushbu muammolarni hal qilishda iqtisodiy tahlilning roli nihoyatda kattadir.

Ushbu qo'llanma 13-bobdan iborat bo'lib, uning 8-bobi bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahliliga bag'ishlanadi. Bu bobda tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini aniqlash, hisoblash tartibi aniq misollar bilan yoritilgan. Bundan tashqari ushbu bobda tannarxni xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlil qilish usullari va yo'llari batafsil bayon qilingan.

Umuman olganimizda, qo'llanmada fermer xo'jaliklarlari xo'jalik faoliyatini qamrab oluvchi barcha ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va tahlil asosida tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bulardan bitiruv ishi yozishda keng foydalanildi.

12. Hasanov Sh.T. Sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishslash samaradorligini oshirish. Avtoreferat. -Samarqand, 2006.

Mazkur adabiyotda Samarqand viloyatida sabzavot mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha holat atroflicha o'rganilib, tegishli xulosa va takliflar berilgan.

13. Xolmirzayev I. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2010. - № 2. -b. 26.

Maqola mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yillaridagi tarmoq rivojlanishi holati qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari baholari o'rtaсидаги nomutanosiblik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xarajatlarning ortib borishi, resurslar samaradorligining pastligi va boshqalar bilan izohlanadi.

Muallif qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muqobil yo'li – barqaror qishloq xo'jalik strategiyasidir. Bu strategiya iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va texnologik barqarorlikni o'zida mujassamlashtirishi zarur, deb ta'kidlaydi. Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi quyidagi beshta omil bajarilishini talab qiladi: ishlab chiqarish samaradorligini oshirish; fermer xo'jaliklarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash; aholining turmush darajasini ko'tarish; tabiiy resurslardan samarali foydalanishni tashkil qilish; atrof-muhitning toza bo'lishi va muvozanatni saqlab turish. Fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ularni barqaror rivojlanish dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqliqdir.

14. Ergashev A. Fermer xo'jaliklarida resurslardan samarali foydalanish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2009. -№ 7 -b. 26 .

Ushbu maqolada muallif fermer xo'jaliklarida resurslardan samarali foydalanish uchun moddiy sarf-xarajatlar monitoringini yuritish lozimligi to'g'risida fikr yuritib, uning asosiy maqsadi sifatida fermer xo'jaliklari tomonidan kontraktasiya shartnomalarini to'liq bajarish, fermer xo'jaliklari tovar-moddiy resurslar yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, tegishli tijorat banklarining iqtisodiy samaradorligiga erishish, fermer xo'jaliklari bilan mol yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtaсидаги shartnomaviy munosabatlarni yanada takomillashtirish, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida

o'tkazish, moddiy texnika resurslaridan, ajratilayotgan kredit resurslaridan samarali va maqsadli foydalanish, o'zaro qarzdorliklarni keskin qisqartirish choralarini ko'rishdan iboratdir. Buning natijasida fermer xo'jaliklarining moliyaviy holati yanada mustahkamlanib, iqtisodiy barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

15. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011. -416 b.

Mazku darslikda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti fanining nazariy va amaliy asoslari kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida bayon etilgan bo'lib, agrar iqtisodiy islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning erkin bozor shakllariga o'tish va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar salmog'i o'sib borishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslangan. Qishloq xo'jaligida mavjud yer-suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, qishloq xo'jalik korxonalarining barqaror shakllanishi, iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil qilinib, istiqbolda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror sur'atda rivojlanish yo'nalishlari ochib berilgan.

2. QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH RESURSLAR VA ULARNING HOZIRGI HOLATI

2.1. Yer resurslari va ulardan oqilona foydalanish

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning moddiy elementlari orasida yer resurslari muhim o'rinni egallaydi. U moddiy boylik yaratishning dastlabki shart-sharoiti va tabiiy asosi hisoblanadi. Klassik iqtisodchilar, yerni mehnat vositalari, mehnat predmetlari va manzilgoh joylarni yaratuvchi buyuk laboratoriya, xazina ekanligini ta'kidlaganlar. Yer resurslari - buyuk va hyech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan milliy boylik. Yer resurslari, boshqa ishlab chiqarish vositalardan tubdan farq qilgani holda, asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiga katta tasir ko'rsatadi.

1. Yer tabiat mahsuli. Inson mehnati tuproq xususiyatini o'zgartiradi, bu uning mehnat predmeti ekanligi. o'simliklarning rivojlanishi va o'sishga ta'sir ko'rsatishi uning mehnat vositasi ekanligi. Ikkalasi birgalikda uning ishlab chiqarish vositasi ekanligini bildiradi.
2. Yerning hududiy chegaralanganligi va uning takror yaratilmasligi. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi insonnig xohishi bilan ko'payib qolavermaydi.
3. Yerni almashtirish mumkin emasligi. Yerni boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi almashtirib bo'lmaydi, undan boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga qarab takomillashganlari bilan almashtiriladi.
4. Yerni siljitib bo'lmasligi. Yer qayerda joylashgan bo'lsa, o'sha yerda undan foydalanish mumkin, uni bir joydan boshqa joyga ko'chirish mumkin emas.
5. Yer uchastkalarining sifati bo'yicha turli tumanligi. Yer uchastkalariga bir xil miqdorda mablag' va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulotlar miqdori turlicha bo'lishi mumkin.
6. Boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanimanda eskiradi, o'zining foydalilik xususiyatini kamaytiradi va butunlay ishdan chiqadi.

Yer umrbodlik ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, eskirmaydi, aksincha u yaxshilab parvarish qilinsa, ko'p hosil beradi. Yerning bu xususiyatlari uning

umrbodligiga, ya'ni parvarish qilinayetgan o'simlikni zarur ozuqa moddalari bilan qondirish va hosil yetishtirish xususiyatiga bog'liq. Iqtisodchilar tuproq unumdorligini uch turga ajratganlar:

1. Tabiiy
2. Sun'iy
3. Iqtisodiy

Tuproqning unumdorligi - quyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta'sirida uzoq davom etgan tuproq hosil bo'lishi jarayonining natijasidir. Tuproqning tabiiy unumdorligi, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini xarakterlaydi, u dehqonchilik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, iqtisodiy unumdorlikning asosi hisoblanadi. U insonning mehnat faoliyatiga bog'liq bo'limgan holda harakat qiladi. lekin tabiiy unumdorlik yerning potensial sifatinigina xarakterlaydi. Tuproq ozuqa moddalariga boy bo'lganligi bilan, unga ishlov berilmasa, ya'ni inson mehnati ta'sir etmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Yerdan foydalanish xarakteri ko'pgina tabiiy, tarixiy, texnik, iqtisodiy va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bunda hal qiluvchi rolni sosial-iqtisodiy omil o'ynaydi. Jamiyatda hukmronlik qiluvchi ishlab chiqarish usuli, shuningdek iqtisodiy munosabatlarning holati yer munosabatlarining xarakterini aniqlaydi. O'zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil etadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 2-bobida ko'rsatilganidek quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar;
2. Aholi punktlarining yerlari;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
6. O'rmon fondi yerlari;
7. Suv fondi yerlari;
8. Davlat zahira yerlari.

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerbosqalar: davlat jamoa xo'jaligi, ilmiy-tekshirish, o'quv va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, shuningdek alohida fuqarolar, dehqon xo'jaliklari va kooperativlarning yerlari kiradi. Bundan tashqari boshqa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, ijtimoiy va diniy tashkilotlarga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yerlar ham kiradi.

2. Aholi punkti yerbosqalariga shahar, posyolka va boshqalarning yer maydonlari kiradi. Uy-joy fondi, parklar va boshqa madaniy-maishiy obyektlarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa qishloq xo'jaligiga taaluqli bo'limgan tarmoqlar yerbosqalar. Ular zavodlar, fabrikalar, temir yo'l va avtomobil transporti, aloqa, mudofaa obyektlari va boshqalarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

4. Tabiatni muhofaza qilish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerbosqalar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerbosqalar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerbosqalar.

5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerbosqalar, tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerbosqalar.

6. O'rmon fondi yerbosqalar. o'rmon bilan band yerbosqalar, shuningdek, o'rmon xo'jaligi zaruriyati uchun mo'ljallangan yerbosqalar.

7. Suv fondi yerbosqalar. Suv havzalari, gidrotexnik, suv xo'jalik inshootlari, shuningdek, suv havzalari qirg'oqlari kiradi.

8. Davlat zahira yerbosqalar. Bu yerbosqalar hozircha hyech kimga egalik qilishga va uzoq muddatli foydalanishga berilmagan. Ular asosan mamlakatning kam aholi yashaydigan tumanlarida joylashgan va yangi korxonalar tashkil qilish uchun foydalaniladi, vaqtincha foydalanishga ajratiladi.

Har bir qishloq xo'jalik korxonasini o'rganishda avvalo yer resurslari o'rganiladi. Shu bois, biz ham tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Tayloq tumani fermer xo'jaliklari yer resurslaridan foydalanish xolatini tahlil qilamiz.

2.1.1-jadval

Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida ekin maydoni tarkibining o'zgarishi*, (2011-2013 yy, ga)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, %
		2011	2012	2013	
1	G'alla	5255	5255	5455	103,8
2	Sabzavot	3800	3125	4085	107,5
3	Kartoshka	1966	1966	1566	79,7
4	Poliz	100	100	85	85,0
5	Meva	758	758	758	100,0
6	Uzum(hosilli)	2967	2967	2967	100,0
	Jami:	14846	14171	14916	100,5

*Manba: Tayloq tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Tayloq tumani fermer xo'jaliklarining ekin maydoni o'simlikchilikda 2013 yilda jami 14916 hektarni tashkil qilgan. 2011 yilda esa 14846 hektar bo'lgan. 2013 yil 2011 yilga nisbatan 0,5 foizga oshgan. Tuman fermer xo'jaliklari hududidagi ekin maydonin o'sishi boshqa xo'jalik yurituvchi shakllari yerlaini fermer xo'jaliklariga berilishi hisobiga oshgan. Fermer xo'jaliklari da 2012 yil 5455 hektar g'alla, 4085 hektar sabzavot, 1566 hektar kartoshka, 85 hektar poliz, 758 hektar meva va 2967 hektar hosilli uzum maydonlari bo'lgan. Ushbu ekin maydonlaridan kartoshka va poliz maydonlari kamayib borgan.

2.2. Moddiy-texnika resurslari va ulardan oqilona foydalanish

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish potensialining samaradorligini oshirishda moddiy-texnika bazasini

kengaytirish qayta tashkil qilish va rekonstruksiya qilish birlamchi ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lган barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva ozuqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi xalq xo'jaliginiig boshqa tarmoqlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq. Yerning unumdarligi hap xil bo'lib, mahsulot birligi ychyn har xil miqdorda xarajat sarflanadi. Bu esa har xil unumdarlikka ega bo'lган yerlarda bir xil miqdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi hududiy xarakterga ega bo'lib, har bir hududda tuproq - iqlim sharoitlari har xil bo'lishi tufayli har xil sistemadagi mashinalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun hududlarda va hududlar ichidagi xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish vaqtin bir biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etadi. Ishlab chiqarish mavsumiy bo'lishi zahira urug'lik, ozuqa, yoqilg'i moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizm (ishchi hayvonlar, mahsuldor mollar, parrandalar, ko'p yillik daraxtlar va

hokazo)lardan iborat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmoqlik kerak.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan transport xizmati, sifatli yo'l qurilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash ko'p miqdorda sarflar qilishni taqozo etadi,

Shuningdek, har qanday ishlab chiqarish kabi kishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Iqtisodiy nazariya fanidan ma'lumki, mehnat predmeti bilan mehnat qurollari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi.

Mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatib, mahsulot ishlab chiqarishda odamlar tomonidan foydalaniladigan hamma buyumlar mehnat vositalari (qurollari) deyiladi. Odam mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy elementlariga qaratilgan bo'lsa, o'sha moddiy element mehnat predmeti deb ataladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi.

Hozirgi vaqtda amaldagi klassifikasiyaga muvofiq xo'jaliklardagi asosiy ishlab chiqarish fondlari o'zining moddiy (natural) xarakteriga va ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan xizmatiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi;

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari (imorat, inshoatlar, o'zatuvchi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar).

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish fondlari (sanoat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar).

3. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan asosiy fondlar (uy joylar, klub, bolalar bog'chasi, maktablar va ularning uskuna va inventarlari).

Har bir qishloq xo'jalik korxonasining fondlar bilan ta'minlanganligi ishlab chiqarishning to'g'ri va soz olib borilishi garovidir. Shu bois, biz ham tadqiqotimiz

obyekti bo'lgan Tayloq tumani fermer xo'jaliklari moddiy-texnika resurslari o'zgarishini 2.2.1-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

2.2.1-jadval
**Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida asosiy fondlar qiymatining
o'zgarishi* (2011-2013 yy.)**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-	
		2011		2013		Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %,
		Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %		
1.	Bino	6190,1	32	6543,9	32,5	353,8	0,5
2.	Inshoat	1238,0	6,4	1208,1	6	-29,9	-0,4
3.	Uzatish moslamalari	328,8	1,7	322,2	1,6	-6,7	-0,1
4.	Mashina va uskunalar	6402,9	33,1	6805,6	33,8	402,8	0,7
5.	Mebel va ofis jihozlari	58,0	0,3	60,4	0,3	2,4	0
6.	Kompyuterlar	19,3	0,1	40,3	0,2	20,9	0,1
7.	Transport vositalari	2243,9	11,6	2355,8	11,7	111,9	0,1
8.	Mahsuldor hayvonlar	38,7	0,2	60,4	0,3	21,7	0,1
9.	Ko'p yillik o'simliklar	2766,2	14,3	2698,1	13,4	-68,1	-0,9
10.	Boshqa asosiy vositalar	58,0	0,3	40,3	0,2	-17,8	-0,1
	Jami asosiy vositalar	19344,2	100	20135,0	100	790,8	0

*Manba: Tayloq tuman statistika ma'lumotlari.

2.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda asosiy vositalarning qiymati 20135,0 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 19344,2 mln.so'mni tashkil etgan. 2013 yil 2011 yilga nisbatan 790,8 mln.so'mga oshgan. Ushbu oshish tuman fermer xo'jaliklarida bino 0,5 punktga, mashina va uskunalar 0,7 punktgan kompyuterlar hamda mahsuldor hayvonlar mos ravishda 0,1 punktga oshishi hisobiga yuz bergen.

2.3. Mehnat resurslar va ulardan oqilona foydalanish

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar 16 dan 60 yoshgacha, ayollar 16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat resurslari tarkibiga

1. Doimiy;
2. Mavsumiy;
3. Vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi;
4. O'smirlar;
5. Nafaqaxo'rlar kiradilar.

Shu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga - muddatsiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishchilar - 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;
3. Vaqtinchalik ishchilarga - 2 oygacha muddatga qabul qilinganlar kiritiladi.

Korxonalarining mehnat resurslaridan tashqari ba'zi hollarda qishloq xo'jaligida (mavsumiy ishlarda) mehnat shartnomasi asosida chetdan jalb qilinganlar mehnatidan ham foydalaniladi, shu jumladan yollanma ishchilar ham. Qishloq xo'jalikda mehnat resurslarining shakllanish va foydalanishning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Biologik ishlab chiqarish vositalari, tirik organizmlar - tuproq, o'simlik, hayvonlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish uchun xodimlar mehnati mazmunining yo'naltirilganligi. Bu qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tirik organizmlarining rivojlanishi, o'zgarishiga, ularning tabiatini noorganik elementidan organik moddalarga sintezlashuviga bog'liqdir;
2. Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi tabiiy, xususan, yerning umumдорligи va ob-havo iqlim sharoitlariga bog'liq. Chunki iqlim tez o'zgarib turganligi uchun o'simlik va hayvonotga qulay sharoit lozimdir;
3. Ko'p xodimlarning bir qancha mehnat vazifalarini bajarishi. Bunday aralashishning zarurligi ish turining ko'pligi va bajarish muddatining

mavsumiyligidan kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligi xodimi alohida texnologik operasiyalarni bajarishga ixtisoslashgan tor malakali bo'lmasligi kerak. Qishloq xo'jalik xodimi ma'lum turdag'i pirovard mahsulot yetishtirishga keng ixtisoslashgan bo'lishi kerak;

4. Ishlab chiqarish jarayonida yer, mollar va boshqa resurslarning mustaqil emasligi. Pirovard mahsulot natijasiga iqtisodiy javobgarligini ta'minlash uchun xodimlarga umumiylar yarlarni emas, balki aniq dalalarni, butun hayvonlarni emas, balki aniq mollar bosh sonini berkitib qo'yish lozimdir;

5. Mehnat jarayonlarining o'z-o'zini boshqarishi. Biologik ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, qishloq xo'jaligida, ayniqsa o'simlikchilikda biologik jarayonda sharoitlar tez-tez o'zgarib turadi, shuning uchun bu yerda chetdan turib boshqarish imkoniyati ancha chegaralangan;

6. Xodimlar daromadining o'simlikchilikda va chorvachilikda pirovard iqtisodiy natijalarga bog'liqligi. Bu bog'liqlik mehnat operasiyalarini bajarish paytida xodimdan texnologik talablarga rioya qilishda o'zini qattiq nazorat qilishning bevosita sharti bo'lib hisoblanadi;

7. Xodimlar daromadining faqat ijtimoiy xo'jalikda emas, balkiy shaxsiy dehqon xo'jaligida ham qo'llanilishi. Samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uning mehnat resurslari bilan me'yor bo'yicha ta'minlashishiga bog'liq. Ish kuchi bilan yetarlicha ta'minlanmasligi ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilinmaslikka, pirovard natijada mahsulotni yetarlicha olinmasligiga olib keladi.

Har bir qishloq xo'jalik korxonasida ishlab chiqarishni ta'minlash uchun uning yetarli mehnat resurslari bo'lishi lozim.

Tayloq tumani joylashuv jihatidan qulay iqtisodiy-jo'g'rofiy hududda joylashganligi sabab, doimiy o'sib boruvchi mehnat resurslari manbalariga ega. O'r ganilgan 2011-2013 yillarda tumanda aholi soni 5865 kishiga yoki 3,5 % ga oshganligi ham bunda yaqqol ko'rindi (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Tayloq tumanida mehnat resurslari manbalarining shakllanishi*

(kishi, 2011-2013 yy.)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish	
		2011	2012	2013	+/-	%
1.	Mavjud aholi soni	168372	170886	174237	5865	103,5
2.	Mehnatga layoqatli aholi	90725	91524	92285	1560	101,7
3.	Band aholi	72526	73042	73574	1048	101,4
4.	Fermer xo'jaliklari a'zolari	18653	18848	13584	-5069	72,8
	Sh.j.: xotin-qizlar	9587	9724	7265	-2322	75,8
a)	Doimiy ishchilar	10158	10167	8273	-1885	81,4
b)	Yollanma ishchilar	7783	7966	4557	-3226	58,6
v)	Rahbar xodimlar	712	715	754	42	105,9

*Manba: Tayloq tumani Statistika bo'limi ma'lumotlari

Fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari soni kamayib borgan. 2013 yilda fermer xo'jaliklari a'zolari soni 13584 kishi bo'lib, 2011 yilga nisbatan -5069 kishiga yoki 27,2 %ga kamaygan.

Fermer xo'jaliklari mehnat resurslari tarkibida doimiy va yollanma ishchilarining kamayishi alohida ta'kidlash lozim. 2011-2013 yillar davomida doimiy ishchilar soni -1885 kishiga yoki 18,6 foizga kamayganligi fermer xo'jaliklarida ishchi kuchi qo'nimsizligi borasida salbiy natijalar berayotganligini bildiradi.

3. FERMER XO'JALIKLARIDA SABZAVOT ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGI VA UNING HOZIRGI HOLATI

3.1. Rentabellik tushunchasi, turlari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi umumiyo ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat bilan ifodalanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi etapdagagi bir qator xususiyatlari va doimiy harakatdagagi omillarning yig'indisiga bog'liq. Bir tomonda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish oziq-ovqat va xom ashyoga bo'lgan talabning o'sib borishi va qiyinlashishi, mahsulot sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining o'zgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Boshqa tomondan, hozirgi etapdagagi jamiyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligin oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Mamlakatda to'plangan iqtisodiy potensial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommanning aktivligi, ularning tajribasi, shuningdek yuqori pirovard natijalarga ommanning moddiy qiziqishining o'sishi o'simchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytiradi va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilda, «Samara» va «Samaradorlik» - tushunchalarining bir xil emasligini ko'zda tutish kerak. «Samara» termini qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan – ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi.

«Samara»- qishloq xo'jalik mahsulotlari shaklida(natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda sferasida esa iqtisodiy, shuningdek xodimlarning yashash va ishlash sharoitini ham aks ettiruvchi sosial o'sish bo'lismi mumkin.

Lekin samara qanchalik muhim bo'lsa ham, o'z-o'zidan kishining mehnat faoliyatini to'liq xarakterlamaydi, qanday resurs(xarajatlar)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orqali olingan bo'lismi mumkin va aksincha, bir xil resurs(xarajat)lar turli samara berishi mumkin. Shuning uchun erishilgan samarani shu samarani olishda qatnashgan resurslar(xarajatlar) bilan taqqoslash zaruriyati kelib chiqadi.

Bundan ko'rindiki, samara(natija) deb atalgan absolyut miqdor bilan bir qatorda yana bir absolyut miqdor – qo'llanilgan yoki iste'mol qilingan resurslarni(joriy ishlab chiqarish xarajatlari) hajmini bilish zarur.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy samaraning (natijaning) resurslarga(xarajatlarga) nisbati yoki aksincha usul bilan aniqlanadi:

$$IS = \frac{S(n)}{R(x)}; \quad \frac{R(x)}{S(n)}$$

Iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday bahodagi resurslar hisobiga iqtisodiy samaraga erishilganliging bildiradi. Samara qancha katta va xarajat shuncha kichkina bo'lsa, ishlab chiqarish iqtisodiy samadorligi shuncha katta bo'ladi va aksincha. Resurslar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida ma'lum bir aloqa mavjud. Xarajatlar ikki xil bo'lismi mumkin: jonli va buyumlashgan. Jonli mehnat, asosiy va moddiy aylanma vositalarning absalyut miqdori resurslar (xarajatlar) sifatida, ular miqdorining kamayishi va ularni tejash – iqtisodiy samara shaklida ko'rindi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mohiyati, uning kriteriyasi va ko'rsatkichlari orqali amalga oshadi.

Mezonning ilmiy tushunchasi ma'lum bir belgi, baho o'lchovini ifodalaydigan asosiy sifati uning muhim xossasidir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mezoni jamiyatga kerak bo'lgan yer maydoni birligidan

chiqadigan qishloq xo'jalik mahsulotining olinishi shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning tejamliligi va yuqori sifatini ta'minlashdir.

Ko'rsatilgan mezon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadiga – tarmoq mahsulotiga aholining o'sib borayotgan talabini to'larq qondirishga javob beradi va uning yutuqlari yo'lini – ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va intensivlashtirish asosida sistemali ravishda ishlab chiqarishni pasaytirishni aniqlab beradi. Shu bilan birga bu mezonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyati eng avvalo yer resurslari bilan mustahkam aloqasini aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligida samara va resurslarning bosqich darajasiga qarab, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi turlarga bo'linadi: xalq xo'jaligi, tarmoq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi, davlat, kooperativ korxonalar, ijara kollektivlari, dehqon xo'jaliklari samaradorligi, ayrim qishloq xo'jalik tarmoqlari va mahsulotlari samaradorligi, alohida ishlab chiqarish resurslari, shuningdek alohida xo'jalik tadbirlari agrotexnik, zootexnik, veterinariya, texnika, iqtisodiy tashqiliy munosabatlar va boshqalarning samaradorligi aniqlanadi.

Xalq xo'jaligi samaradorligi oziq-ovqatga bo'lgan iste'molini qondirish, sanoatning xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, tarmoqni umumdavlat, xalq xo'jalik topshiriqlari va muammolarini hal qilishda moliyaviy hissasi nuqtai nazaridan baholanadi. Tarmoq samaradorligi resurslar potensialidan foydalanishda, xalq xo'jaligining shu tarmog'ida samara (natija) va resurs (xarajat) o'rtaсидagi erishilgan nisbatning natijasini aks ettiradi.

Qabul qilingan samaradorlikni konsepsiyasilariga mos ravishda ko'rsatkichlari ham aniqlanadi:

1 ta xodimga, 1 kishi/soatiga, 1 ga qishloq xo'jalik yaroqli yerga, 100 so'mlik asosiy vositaga, 100 so'mlik oborot vositalariga to'g'ri kelgan samara qo'llanilgan resurslardan foydalanishni samaradorligini xarakterlaydi. 100 so'm ish haqiga, amortizasiya ajratmasiga, moddiy aylanuv vositalariga hamda mahsulot

tannarxiga to'g'ri kelgan mahsulot tannarxga kiritilgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlari samaradorligini ifodalaydi.

Mamlakatimizdagi boshqa tarmoqlar singari fermer xo'jaliklarida ham rentabellikning oshib borishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonalarining foydalilik yoki zararlilik darajasini belgilash uchun rentabellik ko'rsatkichidan foydalaniladi. Rentabellik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini o'zida aks ettiruvchi umumlashgan ko'rsatkich hisoblanadi. U foydalanilgan va iste'mol kilingan ishlab chiqarish resurslari - mehnat, yer-suv, moddiy hamda ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish xarajatlari orqali yetishtirilgan mahsulotdan olingan samaraning mikdor va sifatini, ishlab chiqarishni kengaytirilgan tarzda rivojlantirish imkoniyatini, xodimlarning o'z mehnatlari natijasidan moddiy manfaatdorligini aks ettiradi. Rentabellikda mutloq ko'rsatkich - bu foydadir. Foya - bu realizasiya qilish natijasida olingan sof daromadning qismi bulib, u mahsulot sotishdan keladigan mablag'dan - sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni yoki to'la tannarxini qiymatini chiqarib tashlangan qismiga teng bo'ladi:

$$F = PT \cdot TT$$

Bunda: F- foya,

PT-pul tushumi,

TT-tula tannarx

Foya – bu faqat ishlab chiqarish jarayonida tashkil topgan natija hisoblanib qolmasdan, balki mahsulotlarni sotish jarayonida erishilgan moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichdir. Eng avvalo unda jonli mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli mehnati va boshqa xarajatlar asosida yangi mahsulot yaratiladi. Mehnat unumdarligi qancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan qiymatdagi ish haqi salmog'i shuncha oz bo'ladi, uning bir qismi foydani tashkil qiladi. Foydada, shuningdek buyumlashgan mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi. Mahsulot birligi hisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlarining kamayishi, baho o'zgarmagan holda

foydan ko'paytiradi va nihoyat bu ko'rsatkichda mahsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1. O'lchash vazifasi - foydadan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida foydalilanadi.
2. Taqsimlash vazifasi - qo'shimcha mahsulotni taqsimlash vositasi sifatida.
3. Rag'batlantirish vazifasi - iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish manbai sifatida.

Qishloq xo'jalik tarmog'i korxonalari rentabelligi yalpi va sotilgan mahsulot bo'yicha mutloq va nisbiy shakllarda hisoblanadi. Foyda massasini aniqlash uslubi «Foydani hisoblash nizomi» bo'yicha olib boriladi yoki 2-«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shaklidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

1. Yalpi foyda(zarar) - qishloq xo'jalik korxonasida tovar mahsulotini sotishdan olingan pul tushumi, ya'ni sof pul tushumidan sotilgan tovar mahsulot, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi olib tashlanadi. Bunda sof pul tushumi jami pul tushumidan qo'shimcha qiymat soligi, aksiz solig'i, tashkariga chiqarilgan tovar solig'i, tovar sotib oluvchi tovarni qaytarib berish mumkin bo'lgan skidkalarni (tabiiy kamayish) chiqarish yo'li bilan aniqlanadi:

$$YaF = SST \cdot IT$$

YaF - yalpi foyda, SST - sof pul tushumi, IT - ishlab chiqarish tannarxi.

2. Korxona asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar). Buni aniqlash uchun yalpi foyda (zarar)dan sotish va ma'muriy xarajatlar (davriy xarajatlar) ayrilib, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari va xarajatlari ham mos ravishda qo'shilib va chiqarib tashlanadi:

$$AFF = YaF \cdot DX + BD \cdot BZ$$

AFF- asosiy faoliyat foydasi, DX-davr xarajatlari, BD- boshqa daromadlar, BZ – boshqa zararlar.

3. Korxonaning umuxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar). Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar)dan olingan dvidendlar, zayomlar bo'yicha foizlar, valyutaning ko'rs farki, boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar qo'shilib, xarajatlar va bank prosentlari ayrıladı.

UF =AFF+MD-MX

UF- umuxo'jalik foydasi, MD- moliyaviy daromadlar, MX- moliyaviy xarajatlar.

4. Soliq to'laguncha foyda(zarar) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

STF =UF+FP-FZ

STF-soliq to'langungacha bo'lган foyda, FP-favqulodda olingan foyda, FZ-favkulodda olingan zarar.

5. Sof foyda(zarar). U soliq to'langandan keyin xo'jalik subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad(foyda)dan to'lanadigan solig'ini va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlangan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

SF =STF-DS-BS

SF-sof foyda, DS- daromad solig'i, BS-boshqa soliqlar

Foydaning mutloq hajmi korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini o'zida to'la aks ettirmaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rentabelligining mutloq ko'rsatkichi bilan bir qatorda uning nisbiy ko'rsatkichidan ham foydalilanadi.

"Korxonaning moliyaviy tahliliga doir uslubiy tavsiyalar (instruksiya)" bo'yicha rentabellikning 5 ta moliyaviy koeffisiyentlari keltirilgan.

1. Mahsulot sotishning rentabelligi koeffisiyenti sotilgan mahsulot birligiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu koeffisiyent narx belgilash siyosatidagi o'zgarishlarni va xo'jalik yurituvchi subyektning sotilgan mahsulot tannarxini nazorat qilib turish qobiliyatini ko'rsatadi. Koeffisiyent dinamikasi narxlarni qayta ko'rib chiqish yoki moddiy zahiralardan foydalanish ustida nazoratni kuchaytirish zarurligidan dalolat beradi. Uning pasayishi turli sabablarga ko'ra korxona mahsulotlariga talabning pasayganligini ko'rsatadi.

$$R_{m.s} = \frac{F(Z)}{T} < 0$$

bunda $F(Z)$ -sotishdan olingan foyda(zarar)

T-pul tushumi

Agar mahsulot sotish rentabelligi koeffisiyenti hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

2. Asosiy vositalar va oborotdan tashkari boshqa aktivlarning rentabelligining koeffisiyenti asosiy vositalar va oborotdan tashkari boshqa aktivlardan foydalanish samaradorligini aks ettiradi, ya'ni qishloq xo'jalik korxonasing moliyaviy xo'jalik faoliyatida ishlatadigan aktivlardan foyda yoki zarar ko'rish darajasini ko'rsatadi:

$$R_{av} = \frac{SF(Z)}{A_1} < 0$$

bunda, $SF(Z)$ -soliqka tortishga kadar bo'lgan foyda(zarar)

A_1 -uzokmuddatli aktivlar

Agar aktivlarning rentabelligi koeffisiyenti (zararlilik ko'rsatkichi) hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

3. Xususiy kapitalning rentabelligi koeffisiyenti o'z kapitalidan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Koeffisiyent dinamikasi korxona aksiyalari kotirovka darajasiga ta'sir kiladi. Bu koeffisiyent darajasi investisiya qilgan kapitaldan foydalanish samaradorligini belgilash va bu ko'rsatkichni ushbu mablag'larni boshqa qiymatli kogozlarga sarflashdan olishi mumkin bo'lgan daromad bilan pasayishi ham mahsulotlarga talabning pasaygani va aktivlarning ortiqcha to'planib qolganidan dalolat beradi:

$$R_{xk} = \frac{SF(Z)}{X_{kk}}$$

bunda, X_{kk} qishloq xo'jaligi xususiy kapital qiymati.

Agar xususiy kapital rentabelligi koeffisiyenti 0 dan kichik bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi ushbu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan yakunlangan hisoblanadi.

4. Permanent kapitalning rentabelligi koeffisiyenti korxona faoliyatiga sarflangan kapitaldan (o'zining va karzga olingan) foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

$$R_{pk} = \frac{SF(Z)}{P_1 + X_{kk}}$$

bunda, P_1 -uz mablag manbalari

Agar permanent kapital rentabelligi koeffisiyenti 0 dan kichik bo'lsa, korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

5. Kapitalning umumiy aylanuvchanligining rentabelligi koeffisiyenti korxona butun kapitalining aylanish tezligini aks ettiradi. Uning usishi korxona mablag'lari oborotining jadallahganligini yoki narxlarning infliyasion o'sishini anglatadi.

$$R_{kua} = \frac{T}{BYa} < 0$$

bunda: BYa - balans yakuni

Agar kapital umumiy aylanuvchanligining rentabelligi koeffisiyenti 0 dan kichik bo'lsa, korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

Rentabellikning ko'rsatkichlari ichida sotilgan mahsulotlarning tannarxiga kiritilgan xarajatlar rentabelligi universal ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni ayrim korxona, tarmoq va mahsulotlar bo'yicha hisoblash mumkin.

Olib borgan izlanishlarimiz davomida Tayloq tumani fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib o'tdik (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Tayloq tumani 2013 yilda fermer xo'jaliklari o'simlikchilikda jami 14916 ga yer maydonida faoliyat olib borishgan. Ularda pul daromadi 2013 yilda 112660 mln so'm bo'lib, 2011 yilga nisbatan 49032,0 mln so'm yoki 77,1 %ga oshgan. Foyda miqdori 2013 yilda 30114 mln so'm bo'lib, bu ko'rsatkichda ham 12471 mln so'm yoki 70,7 %ga o'sish kuzatilgan.

3.1.1-jadval

Tayloq tumani fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili*(2011-2013 yy.)

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish	
			2011	2012	2013		
			+/-	%			
1.	Fermer xo'jaliklar soni	dona	661	661	708	47	107,1
2.	Yer maydoni	ga	14846	14171	14916	70	100,5
3.	Mehnat resurslari soni	kishi	18653	18848	13584	-5069	72,8
4.	Asosiy vositalar qiymati	mln so'm	19344,2	19612,5	20135	790,8	104,1
5.	Jami daromad	mln so'm	63628	100609	112660	49032	177,1
6.	Jami xarajatlar	mln so'm	45985	75195	82546	36561	179,5
7.	Yalpi foyda	mln so'm	17643	25414	30114	12471	170,7
8.	Asosiy yetishtirilgan mahsulotlar:						
-	g'alla	tonna	26202	30479	32983	6781	125,9
-	sabzavot	tonna	77695	101324	90419	12724	116,4
-	Uzum	tonna	26842	37135	32530	5688	121,2
9.	Rentabellik darajasi	%	38,4	33,8	36,5	1,9 punktga kamaygan	

*Manba: Tayloq tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari.

Tuman fermer xo'jaliklarida 2013 yilda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan g'alla – 32983 tonna, sabzavot – 90419 tonna, uzum – 32530 tonna yetishtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar 2011 yilga nisbatan o'sish kuzatilgan.

Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida rentabellik daraja 2013 yil 2011 yilga nisbatan 1,9 punktga kamayganligini ko'rshimiz mumkin.

3.2. Fermer xo'jaliklarida sabzavot ishlab chiqarish rentabelligining hozirgi holati tahlili

Bugun mamlakatimiz agrar tarmog'ida bozor tamoyillarini bosqichmabosqich joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan agroiqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq, yetishtirilgan mahsulot va mol-mulkka xususiy egalik qilgan holda, yer uchastkalaridan uzoq muddatli ijara asosida foydalanib ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, samarali natijalarga erishib kelayotgan fermer xo'jaliklarining soni tobora ortib bormoqda.

Ma'lumki, har qaysi jamiyatda rivojlanish qaysi bir iqtisodiy tizim asosida yaratilishidan qat'i nazar, pirovard vazifa qilib aholini ijtimoiy faravonligini oshirishga qaratiladi. Mamlakatimizda ham qishloq xo'jalik sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi tufayli sabzavot mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishslash korxonalarining faoliyatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Binobarin, bu tarmoq aholini vitaminlarga boy, ekologik toza, yangi uzilgan sabzavot mahsulotlari, sanoat korxonalarini esa xom ashyo bilan ta'minlash imkonini beradi.

Sabzavotlarning inson salomatligiga bevosita ta'sirini hisoga olib O'zbekistonda aholi jon boshiga yil mobaynida quyidagi xajmda sabzavotlar iste'mol qilish tavsiya etilgan: Jami - 110-115kg, shu jumladan pamidor - 25, bosh piyoz - 18, sabzi - 18, karam - 20, lavlagi - 5, bodring - 5, sarimsoq - 5, boshqa sabzavotlar - 14, ko'kat sabzavotlar - 5 kg.

Sabzavotlarni xo'l iste'mol uning smaradorligini keskin oshiradi. Biroq sabzavotlar tarkibida ko'p suv bo'lishi va eruvchan uglevodlarning borligi uchun ularni uzoq muddatlarga saqlansa, nobudgarchilik ko'payadi va sifat belgilari pastlashadi. Shuning uchun ularni uzoq joylarga tashishda qiyinchiliklar bo'lib, konservalash zaruriyati tug'iladi.

O'zbekiston issiq iqlim sharoitida konservalashning eng oddiy va samarali usuli quritishdir. Quritlganda sabzavot tarkibidagi suvning ko'p qismi bug'lanadi, sabzavot vazni 7-10 baravar kamayadi, kam xarajat qilib uzoq saqlashga, tashishga sharoit yaratiladi.

Mamlakatimizda sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni yo'lga qo'yishda «Uzmevasabzavotuzumsanoat-xolding» kompaniyasining roli sezilarlidir. Xolding kompaniyasi Vazirlar Maxkamasining qarori bilan 1997 yilda tashkil topgan. Xozirgi kunda uning tarkibiga 27 ta agrofirma, 22 ta konserva va meva-sabzavot quritish zavodi, 46 ta vinochilik sanoati korxonasi, 43 ta ulgurji sharob savdo bazasi va 123 ta fermer xo'jaliklari biriktirilgan.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi ko'p jixatdan unga yopishtirilgan yorliqqa bog'liq. Bizlarda bosmaxonalarda tayyorlanayotgan yorliqlar mahsulot turini, nomini va boshqa parametrlarini yetarli darajada ifoda eta olmaydi. Xaridorga batafsil mahsulot to'g'risida to'liq barcha parametrlarini ifodalaydigan yorliqlar bo'lishi lozim. Xolding kompaniya korxonalar mahsulotlari bilan bir qatorda dexqon, fermer xo'jaliklari va xususiy tadbirkorlar yetishtirgan meva, sabzavot, uzum, poliz va ulardan qayta ishlangan mahsulotlarni ham Rossiya bozorlarida sotish uchun bevosita ko'maklashish maqsadida «Sharq bozori» nomli bozor ochgan.

Mustaqil rivojlanish yillarida yalpi sabzavotning taxminan 80-85%i respublika aholisi tomonidan iste'mol qilinib, ichki bozorlarda sotiladi, urug'lik uchun foydalaniladi. Uning sifat belgilari past qismi esa chorvachilikda ozuqa uchun foydalaniladi. Sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni sotishning yuqori samaradorligini hisobga olib, uni istiqbolda ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laroq va tezroq foydalanish dolzarb muammolaridan biridir. Mamlakatimizda sabzavot yetishtirish asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan hisoblanadi. Uning asosini tomat(pomidor), sabzi, piyoz,tashkil qilib, ular jami yetishtirilayotgan sabzavot maxsulotlarining 97% ni tashkil etadi.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologik jihatdan toza, sifatli va arzonroq mahsulotlar ishlab chiqarib yuqori darajadi foyda olishdir. Tayloq tumani sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini 3.2.1–jadvalda ko'rishib chiqamiz.

3.2.1-jadval

**Tayloq tumani fermer xo'jaliklarining sabzavotchilikda asosiy iqtisodiy
ko'rsatkichlari tahlili*(2011-2013 yy.)**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan	
		2011	2012	2013	(+,-)	%
1.	Ekin maydoni, ga	3800	3152	4085	285	107,5
2.	Yalpi hosil, s	777100	1013368	904011	126911	116,3
3.	Hosildorlik, s/ga	204,5	321,5	221,3	16,8	108,2
4.	Yalpi mahsulot qiymati, mln.so'm	19424	28371	34359	14935	176,9
5.	Jami ishlab chiqarish xarajatlari, mln.so'm	14082	20569	24739	10657	175,7
6.	Mahsulotni sotishdan olingan foyda, mln.so'm	5342	7802	9620	4278	180,1
7.	1 hektar hisobiga					
-	Daromad, ming so'm	5111,6	9001,0	8411,0	3299,4	164,5
-	Xarajatlar sarfi, ming so'm	3705,8	6525,7	6056,1	2350,3	163,4
-	Foyda, ming so'm	1405,8	2475,3	2355,0	949,2	167,5
8.	1 s. hisobiga					
-	Tannarxi, ming so'm	18,1	20,3	27,3	9,2	151,0
-	O'rtacha sotish bahosi, ming so'm	25,0	28,0	38,0	13,0	152,1
-	Sotishdan olingan foyda, ming so'm	6,9	7,7	10,7	3,8	154,8
9.	Sotilgan sabzavotning rentabelligi, %	37,9	37,9	38,9	1,0 punktga oshgan	

*Manba: Samarqand viloyat Tayloq tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

3.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida 2013-yilda sabzavot yetishtirish uchun jami 4085 hektar ekin maydoniga sabzavot yetishtirilib o'rtacha 1 hektardan 221,3 s/ga sabzavot mahsulotlari olingan bo'lib, yalpi xosil 904011 s.ni tashkil etgan. Sabzavot yetishtirishga jami 24739 mln so'm xarajat qilib 34359 mln so'm daromad olgan. Natijada sabzavotchilikda olingan foyda 9620 mln so'mni tashkil etgan.

Ushbu ko'rsatkichlarni 2011 yilga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, ekin maydoni 285 hektarga yoki 107,5 foizga, xosildorlik 16,8 s/ga yoki 108,2 foizga oshgan. Natijada ekin maydoning 285 hektarga hamda xosildorlikning 16,8 s/ga oshishi hisobiga yallpi xosil 126911 s.ga yoki 116,3 foizga oshgan.

3.3. Fermer xo'jaliklarida sabzavotchilikda rentabellikning omilli tahlili

Rentabellik ko'rsatkichlari fermer xo'jaliklarining moliyaviy faoliyatining samaradorligini ifodalovchi nisbiy koeffisiyentdir. U xo'jalikning daromadliligini, foydalilagini ifodalaydi. Rentabellik ko'rsatkichlari xo'jalikning u yoki bu xolati buyicha foydalilik yoki zararlik darajasini ta'riflash va ularga baho berish uchun ishlatiladi.

Rentabellik darajasi buyicha bir so'mlik mablag'lar, xarajatlar va fondlar qiymatiga nisbatan olingan foydaning xajmi aniqlanadi. Agar ushbu ko'rsatkich darajasi oshib borsa, foydalilikning oshib borishini bildiradi, bu esa o'z navbatida moliyaviy faoliyat samaradorligini oshganligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari realizasiyasi rentabelligi koeffisiyentini aniqlash uchun yuqorida qayd qilinganidek, mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foya summasini sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga bo'lismaydi.

$$R_m = \frac{Y_{aF}}{TN} = \frac{Y_{alpi} foyda}{mahsulotlar tannarxi}$$

Bu koeffisiyent 1 so'mlik ishlab chiqarish tannarxi (xarajati) hisobiga mahsulotlarni sotishdan olingan foya (zararni) ko'rsatadi. Ushbu koeffisiyent qancha yuqori bo'lsa, foydalilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi, agar kam bo'lsa foydalilik kamayib, samaradorlik pasayadi.

Ushbu koeffisiyent bo'yicha moliyaviy natijaga baho berish uchun uni uzluksiz ravishda tahlil etib borish kerak.

Hisobot yilidagi rentabellik darajasini bazis yiliga solishtirib, uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$\frac{Y_{aF1}}{TN\ 1} - \frac{Y_{aFo}}{TN\ 0} = +\Delta tn,yaf$$

Shundan so'ng o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Ushbu rentabellik koeffisiyentining o'zgarishiga yalpi foya hajmining o'zgarishi bevosita, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi hajmining o'zgarishi bilvosita ta'sir qiladi. Yalpi foya hajmining bazis yilidagi hajmiga nisbatan ko'payishi albatta rentabellik koeffisiyentining oshishiga olib keladi,

kamayishi aksincha, uning darajasini pasayishiga sababchi bo'ladi. Ishlab chiqarish tannarxi hajmining ko'payishi rentabellik koeffisiyentini kamayishiga, uning hajmining kamayishi esa rentabellik darajasining oshishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan mahsulotlar realizasiyasi rentabelligini ifodalovchi formuladan ko'rinish turibdiki, uning o'zgarishi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- Sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi so'mmasining o'zgarishi hisobiga (TN)
- Sotilgan mahsulotlar bo'yicha olingan yalpi foyda so'mmasining o'zgarishi hisobiga (YaF)

Ushbu omillarning rentabellik koeffisiyentining o'zgarishiga ta'sirini "Zanjirli almashtirish" usulidan foydalanib, aniqlanadi. Ammo ularning ta'sirini aniqlaganga qadar "Shartli rentabellik koeffisiyenti"ni aniqlab olish zarur.

Shartli rentabellik koeffisiyentini aniqlash uchun bazis davridagi yalpi foyda summasini (YaFo) hisobot davridagi sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxiga (TN1) bo'lish kerak:

$$YaFo$$

$$Rmsh = \dots$$

$$TN\ 1$$

Shundan so'ng mahsulotlar realizasiyasi rentabelli koeffisiyentini o'zgarishiga omillarning ta'siri "Zanjirli almashtirish" usuli orqali aniqlanadi.

Ushbu rentabellik koeffisiyentining o'zgarishiga "sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi" o'zgarishini ta'sirini "Shartli rentabellik koeffisiyenti"dan bazis davridagi "rentabellik koeffisiyenti"ni chiqarib tashlash orqali aniqlanadi:

$$\frac{YaFo}{TN\ 1} - \frac{YaFo}{TNo} = \pm \Delta tn$$

Agar ushbu koeffisiyent bazis yiliga nisbatan oshsa, tannarx hajmining kamayishi tufayli yuzaga kelganligini bildiradi, agar u pasaysa - tannarx summasining oshishi hisobiga paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, tannarx hajmining o'zgarishi rentabellik koeffisiyentining o'zgarishiga bilvosita ta'sir qiladi.

Rentabellik darajasining o'zgarishiga ikkinchi omilning ya'ni yalpi foyda hajmining o'zgarishini ta'siri aniqlash uchun hisobot davridagi rentabellik koeffisiyentidan shartli rentabellik koeffisiyentini chegirib tashlamoq kerak:

$$\frac{YaF1}{TN1} - \frac{YaFo}{TN1} = \pm\Delta yaf$$

Agar koeffisiyent ushbu bazis yiliga nisbatan oshgan bo'lsa, bu yalpi foydaning oshganligi tufayli, kamaygan bo'lsa – yalpi foydaning kamayganligi natijasida yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Demak, yalpi foydaning o'zgarishi rentabellik koeffisiyentining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiladi.

Ikkala omil ta'sirining yig'indisi mahsulotlar realizasiyasi rentabelligi koeffisiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart.

Omillar ta'siri aniqlangandan keyin ularning ta'siriga baho berilib, xulosa chiqarilishi kerak. Ammo bo'larning ta'siriga to'liq baho berish uchun yalpi foydaning tashkil bo'lishi va mahsulotlar realizasiyasi jarayonini chuqr tahlil etish zarur.

Yalpi foydaning o'zi mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farqi tariqasida aniqlanadi. Demak, analitik, birinchidan, sotilgan mahsulotlar tarkibi, strukturasi va ularning baholarini tashkil topish holatini, ikkinchidan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini tarkibi va strukturasini batafsil tahlil etish kerak.

Agar rentabellik koeffisiyenti pasaygan bo'lsa, bu moddiy sarflar hajmining oshib ketishi, mehnat sarflarining ko'payishi, moddiy resurslardan to'liq foydalanmaslik, tovarlarga bo'lgan talabning pasayishi kabi ko'plab omillar hisobiga sodir bo'lganligini bildiradi. Shuning uchun rentabellik formulasining surati va maxrajidagi ko'rsatkichlarni tarkibi va strukturasini chuqr tahlil etish kerak.

Yuqoridagi nazariy fikrlardan foydalangan holda Tayloq tumani fermer xo'jaliklarining sabzavotchilikda rentabelligini omilli tahlil etdik (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

Tayloq tumani fermer xo'jaliklarining sabzavotchilikda rentabelligini omilli tahlili* (2011-2013 yy.)

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2013 yildagi o'rtacha bahos va 2011 yildagi o'rtacha tannarxi buyicha	2013 yil	O'zgarishi (+;-)	Sh.j: o'zgarishi	
						Baho hisobiga	Tannarx hiso- biga
1	1s. sabzavotning o'rtacha sotish bahosi, ming so'm	25,0	38,0	38,0	13,0	x	x
2	1s. sabzavotning o'rtacha tannarxi, ming so'm	18,1	18,1	27,3	9,2	x	x
3	1s. sabzavot sotishdan olingan foyda, ming so'm	6,9	19,9	10,7	3,8	x	x
4	Rentabellik darajasi,%	37,9	9,9	38,9	1,0	-28,0	29,0

*Manba: Samarqand viloyat Tayloq tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013-yillar ma'lumotlari

3.3.1 - jadval ma'lumotlariga ko'ra fermer xo'jaliklarda sabzavotni sotish rentabellik darajasi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan -27,9 punktga kamaygan, asosan ushba kamayishga ikkita omilning ta'siri ya'ni, birinchi omil 1 s sabzavotni ishlab chiqarish tannarxi hisobiga -29,0 punktga oshganligi va ikkinchi omil ya'ni, 1 s mahsulotdan olingan baho hisobiga -28 punktga kamayganligi hisobiga yuz bergen.

4. FERMER XO'JALIKLARIDA SABZAVOT ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

4.1. Sabzavotchilikda moddiy xarajatlarni pasaytirish imkoniyatlaridan foydalanish

Qishloq xo'jalik korxonalarida tannarx iqtisodiy ko'rsatkichlarning biri sifatida xo'jaliklar iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida, bir tomonidan, jonli mehnat, ikkinchi tomonidan buyumlashgan mehnat sarflanadi. U yoki bu yerdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnat sarflab birgalikda ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Ma'lumki, xar qanday tovar kiymati uch kismdan birinchidan, iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari kiymati (IV), ikkinchidan, zaruriy mehnat sarfi natijasida yaratilgan zaruriy mahsulot kiymati (ZM), uchinchidai, jamiyat uchun sarflangan mehnat natijasida hosil qilingan mahsulot yoki sof daromad (SD)dan iborat. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari doimo mahsulot tannarxi mikdoridan ortik buladi. Chunki mahsulot tannarxi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha jonli mehnatni uzida ifodalamasdan, fakat uning bir kismini, ya'ni zaruriy mehnat sarfini oladi.

Mahsulot ishlab chiqarishda jamiyat uchun sarflangan jonli mehnat qiymati mahsulot tannarxi tarkibiga kirmaydi. Demak, korxonaning mahsulot tannarxi uni ishlab chiqarish uchun sarflangai ishlab chiqarish vositalari hamda mehnat haqi sarfining puldagi ifoda etilishidir. U ijtimoiy ishlb chiqarish xarajatlarining bir kismi bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotning korxonaga kanchaga tushganligini kursatadi, Korxona tannarxi mahsulotni ishlab chiqarish va realizasiya kilish uchun sarflangan xa rajatlar yigindisidan tashkil topadi.

Mahsulot tannarxi korxonaning xo'jalik faoliyatini uzida to'la aks etuvchi asosiy ko'rsatkichdir. Mahsulot tannarxi uzida korxonaning ishlab chiqarish vositalari bilan kay darajada taxminlanganligi va undan foydalanish, mehnatni tashkil etishni takomillashuvi darjasи va mehnat unumdorligini usish xolati, ishlab chiqarish jarayoniga raxbarlik kilish samaradorligi, ishlab chiqarish rentabelligi va

samaradorligi xolatini to’la aks ettiradi. Mahsulot tannarxi yordamida moddiy, mehnat va pul xarajatlaridan kay darajada foydalanilayotganligini taklil kilish imkoniyati yaratiladi,

Bir turdag'i mahsulotni yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar kulami turli xo'jaliklarda xar xil bo'lib, bu uz navbatida mahsulot tannarxining xar xil bo'lishiga olib keladi. Mahsulot birligi tannarxidan tashqari ayrim ishlarning (traktor, avtotransport, ishchi xayvon va boshqalar), shu jumladan ayrim va shartli gektar yer, t/km, kvt elektr energiya, bir bosh xayvonga va boshqa tannarxlarni aniklashga xam zaruriyat tugiladi.

Xarajatlarni hisoblash xususiyatiga qarab quyidagicha tannarx turlari aniqlanadi:

1. Reja tannarxi.
2. Dastlabki, vaqtinchalik va taxminiy tannarx
3. Xaqiqiy tannarx
 1. Reja tannarxi, bu korxona rejalashtirayotgan davrdagi mahsulot birligiga sarflanishi lozim bo'lgan me'yoriy xarajatlar yigindisini ifodalaydi.
 2. Vaqtinchalik yoki taxminiy tannarx esa 9 oylik xaqiqiy xarajatlar va 4-kvartaldagi reja xarajatlari asosida belgilanadi.
 3. Xaqiqiy tannarx esa yil oxirida korxona xo'jalik faoliyatini yakun qilishda yillik hisobatlar asosida hisoblanadi. U olingan yalpi mahsulot uchun sarflangan xaqiqiy xarajatlar asosida aniklanadi.

Ma'lumki, sabzavot tannarxini pasaytirish muhim vazifa bo'lib, bu vazifani hal qilishda mavjud yer-suv, mehnat va moddiy resurslarni, ya'ni resurslar salohiyatini to'g'ri sarflash, ularni belgilangan me'yorlariga qat'iy rioya qilish, tejamkorlikni amalda keng qo'llash muhimdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jaliklar mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxi kalkulyasiyasini to'g'ri tashkil kilishning ahamiyati ham juda kattadir. Tannarx tarkibidagi har bir moddada o'z aksini topgan xarajatlar hajmining o'zgarishi xam ekstensiv va intensiv omillar hisobiga sodir buladi. Bu omillarni miqdoriy va sifatiy (qiymat) omillari deb atash mumkin. Shu ikki omil

kupaytmasining yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmi (summasi)ga teng bo'ladi. Demak, omillar ta'sirining yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmining umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi shart. Masalan, ish haqi va unga tenglashtirilgan sarflar moddasini olaylik. Shu modda bo'yicha kursatilgan hisobot yilidagi summani bazis yilidagi xarajatlar qiymatiga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga yuzaga keladi:

• 1 s. mahsulot uchun sarflangan kishi/soatlar mikdorining o'zgarishi hisobiga;

• 1 kishi/soatga to'g'ri keladigan ish haqi darajasining o'zgarishi hisobiga.

Mahsulot tannarxi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining muhim omili va ko'rsatkichi hisoblanadi. Har qanday mahsulot birligining tannarxi ikki miqdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi. Tannarx quyidagi hollarda pasayishi mumkin:

1. Agar mahsulot o'zgarmagani holda, xarajat miqdori kamaysa.
2. Agar yalpi mahsulot miqdori ko'payib, xarajatlar o'zgarmasa.
3. Agar yalpi mahsulotining o'sish sur'ati xarajatlar o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa.

Ma'lumki, sabzavot mahsulotlarini ko'paytirish intesiv va ekstensiv yo'llardan foydalanish darajasiga bog'liq.

Sabzavot tannarxini moddiy-pul resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga ham pasaytirish lozim. Shu maqsadda ularning tashkil topish xususiyatlarini tahlil qilamiz.

1 s. mahsulot tannarxining tahlili bilan bir qatorda uning tarkibiy tuzilishini ham tahlil etish zarur, ya'ni tannarx tarkibidagi har bir modda bo'yicha o'zgarishini omilli tahlil qilish kerak, shunday qilinsa, tannarxni arzonlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun sharoit yaratiladi.

Tayloq tumani sabzavotchilik fermer xo'jaliklarida 2011-2013 yillardagi sabzavot mahsulotlari yetishtirish uchun sarflangan xarajatlarning tarkibini 4.1.1-jadvalda ko'rib chiqamiz.

4.1.1 -jadval

Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida sabzavot mahsulotlari yetishtirish uchun sarflangan xarajatlarning tarkibi tahlili*
(2011-2013 yy.)

Ko'rsatkichlar	2011 yil mln. so'm	Ulushi %	2012 yil mln. so'm	Ulushi %	2013 yil mln. so'm	Ulushi %	2013 yilni 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
							(+/-)	punktida
Mehnat haqi, ajratmalar bilan	3844,4	27,3	5594,8	27,2	6803,2	27,5	2958,8	0,2
Mineral o'g'itlar	2929,1	20,8	4381,2	21,3	5343,6	21,6	2414,6	0,8
Amortizasiya	450,6	3,2	575,9	2,8	742,2	3	291,5	-0,2
Urug'lik	2013,7	14,3	3044,2	14,8	3735,6	15,1	1721,9	0,8
Ish-xizmatlar	2168,6	15,4	3105,9	15,1	3710,9	15	1542,2	-0,4
YoMM	1520,9	10,8	2488,8	12,1	3141,9	12,7	1621,0	1,9
Umum ishlab chiqarish xarajatlari	760,4	5,4	884,5	4,3	1014,3	4,1	253,9	-1,3
Boshka xarajatlar	394,3	2,8	493,7	2,4	247,4	1	-146,9	-1,8
Jami	14082	100	20569	100	24739	100	10657	175,7

*Manba: Samarqand viloyat Tayloq tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

4.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflangan jami xarajat 2013 yilda 24739 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, mehnat haqi, ajratmalar bilan 27,5 foizni, mineral o'g'itlar 21,6 foizni, amortizasiya xarajatlari 3,0 foizni, urug'lik 15,1 foizni, ish-xizmatlar 15,0 foizni, YoMM 12,7 foizni, umum ishlab chiqarish xarajatlari 4,1 foizni va boshqa xarajatlar 1,0 foizni tashkil qilgan. 2013 yil 2011 yilga nisbatan ushbu xarajatlar tarkibi 2-3 marta oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarining pul shaklida ifodalanishi tannarx deb ataladi. Tannarx o'z navbatida jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so'mlik yalpi mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar ko'rsatkichlariga bo'linadi. Ushbu ko'rsatkichlardan birinchisini tahlil etish tartibi yuqorida bayon qilindi. Endi bir birlik mahsulot tannarxini ko'rib chiqamiz.

Mahsulot birligining tannarxini tahlilini amalga oshirish uchun solishtirish va zanjirli almashtirish usullaridan foydalanamiz.

Hisobot davridagi bir birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) tannarxiga solishtirib, mutloq va nisbiy o'zgarishlari aniqlanadi. So'ngra «zanjirli almashtirish» usuli orqali omilli tahlil etilib, omillarning ijobiylari va salbiy doiralari aniqlanib, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

1 tonna mahsulot tannarxining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida sodir buladi. Bu omillar quyidagilardir:

1. 1 hektar ekin maydoni hisobiga qilingan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi.
2. 1 hektar ekin maydonidan olingan hosil miqdorining (ya'ni hosildorlik darajasining) o'zgarishi.

Tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlaganga qadar 1s mahsulotning shartli tannarxini aniqlab olish zarur. Shartli tannarxni (Z_{sh}) aniqlash uchun hisobot davridagi (yilidagi) 1 hektar ekin maydoni hisobiga qilingan

xarajatlar hajmini (IX_1) bazis davridagi (yilidagi) hosildorlik darajasiga (X_0) bo'lish kerak.

$$Z_{sh} = \frac{IX_1}{X_0}$$

1 hektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajatlarni hajmini aniqlash uchun u yoki bu ekin turi uchun qilingan jami xarajatlar hajmini jami ekin maydoniga bo'lish kerak.

Shartli tannarx aniqlangandan keyin tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, quyidagi tartibda aniqlash kerak.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni 1 ga ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 s mahsulotning shartli tannarxidan uning bazis davridagi tannarxini chegirish kerak.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga intensiv omillning, ya'ni hosildorlik darjasini o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 tonna mahsulotning hisobot yilidagi tannarxidan shartli tannarxni chegirish kerak (4.1.2-jadval).

4.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda 1 s sabzavotning tannarxi 27,3 ming so'mni tashkil etgan va 2011 yilga nisbatan 9,2 ming so'mga oshgan va bu o'zgarish 1 ga yerga qilangan xarajatning 2350,3 ming so'mga oshgani tannarxning 11,5 punktga oshishiga sabab bo'lgan bo'lsa, hosildorlikning 97 sentnerga oshishi tannarxni 2,3 punktga kamayishiga sabab bo'lgan.

4.1.2-jadval

Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida sabzavot tannarxining omilli tahlili* (2011-2013 yy.)

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2013 yildagi 1 ga yer xarajati va 2011 yildagi hosildorlik bo'yicha	2013 yil	O'zgarishi, (+/-)	Sh.j.	
						1 hektar yer xarajati hisobiga	Hosildorlik hisobiga
1.	1 hektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	3705,8	6056,1	6056,1	2350,3	x	x
2.	1 ga ekin maydonidan olangan hosil, s/ga	204,5	204,5	221,3	16,8	x	x
3.	1 s sabzavot tannarxi, ming so'm	18,1	29,6	27,3	9,2	11,5	-2,3

*Manba: Samarqand viloyat Tayloq tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

4.2. Sabzavotchilikda mahsulot miqdori va sifatini oshirish imkoniyatlari

Kuzgi-qishki muddatda mamlakatimiz iqlimi quyoshli bo'shanligi bois ochik maydon sabzavotchiligi keng tarkalgan. Ushbu maydonlarga sabzavotlar ko'chat qilib o'tqaziladi. Uning bir necha afzallikkali mavjud. Birinchidan, daladagi o'simliklardan bir oy ilgariroq ekish, hosilning barvaqt yetkazish imkonini beradi, ikkinchidan, ko'chat evaziga issiqsevar pomidor kabi ekinni mo'tadil iqlimda ham o'stirish mumkin. Uchinchidan urug' tejaladi, yagonalash va begona o'tlarga qarshi kurashish osonlashadi.

Ko'chat tayyorlash asosan parnik sharoitida yetishtiriladi. Bunda ikki qism yaxshi chirigan go'ng yoki chirindi hamda bir qism dalaning unumdar tuprog'i aralashtirilib serunum tuproq tayyorlanadi. Parniklarga 10-12 sm qalinlikda tuproq solinadi. Plyonkali issiqxonalarda esa tuprok 50 % chirindi, 40 % dala tuprog'i va 10 % yog'och chirindisi qo'shib tayyorlanadi. Yana xar 1 m² tuproqqa 300 gr ammiak selitrasni, 400 gr qo'sh superfosfat va 400 gr kaliy sulfati qo'shiladi. Urug' sepishdan oldin yengil bostirib sug'oriladi. Urug'lar sifatiga qarab saralab olingach, 1 kun davomida 25-35 °S da qizdiriladi yoki urug'ga 80% li TMTD 6-8 gr yoki fentiuram 3-4 gr hisobida dorilanadi.

Sabzavotlarni parnikga ekish muddatlari ertangi karam urug'i 20-dekabrdan -10 yanvargacha; o'rtangisi mart oyi oxirlarida; ertangi tomat fevralning boshlarida; kechki tomat, qalampir, boyimjon fevralning ikkinchi yarmi va martning boshlarida ekiladi. Karam va tomat urug'lari 1 ga maydon uchun yetarli kuchat olish uchun 350-400 gr ; boyimjon 600 gr va kalampir urug'lari 800-1000 gr miqdorida ekiladi. Urug'lar yirikligiga qarab 0.5 va 1.0 sm chuqurlikda ekiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ekish normasida gektariga sarflanadigan urug' soni ko'rsatiladi. Urug'lar qadalgach oradan qish-baxorda 50-60 kun, yozda 30-35 kun o'tgach, ko'chatlar 4-7 chinbang chiqarganda dalaga o'tqaziladi. Dalaga o'tqazishdan oldin yerlarni ekishga tayyorlashda almashlab ekishga katta ahamiyat beriladi.

Sabzavotchilikda almashlab ekishning uchta turi: dala, yem-xashak yoki ferma atrofidagi va maxsus almashlab ekishlar mavjud. Dala almashlab ekishlari texnika va donli ekinlarga mo'ljallangan bo'lib, ular salmog'i navbatlashuvda 50-70 % ni tashkil etadi. Masalan, g'alla ekinlari, paxta, tamaki, nuxat.

Almashlab ekish sxemasi turli xo'jaliklarda ishlab chiqarish dasturidan kelib chiqib joriy etiladi. Sxemaga kirgan dalalarda o'stiriladigan sabzavot ekinlarining assortimenti shu tarmoqda ko'zda tutilgan maqsadlarga, ya'ni, ertagi sabzavot yoki uzoq muddat saqlanadigan va sanoatda qayta ishlanadigan sabzavot yetishtirishga bog'liq bo'ladi. Sabzavot almashlab ekishda uchinchi dalaga o'rtagi sabzavotlar: pomidor, bodring ekiladi. Ekiladigan pomidorni kartoshka, kalampir, boyimjon, tamaki, shuningdek g'o'za ekinidan so'ng ekmaslik lozim, chunki pomidorda o'simliklarida uchraydigan kasallik zararkunandalariga chalinadi. Chunki pomidor ham g'o'za singari ko'sak qurti bilan zararlanadi. Bir dalada pomidorni ikki yil o'stirib, oradan uch yil o'tgandan keyingina yana shu dalaga ekish maqsadga muvofiqdir.

Yem-xashak almashlab ekishlari chorvachilik fermalari atrofida joylashgan bo'lib, maqsad chorvani uzlusiz arzon ozuqa bilan ta'minlashdir. Shuningdek sabzavot chiqindilari ham yaxshi chorva ozukasi hisoblanadi. Maxsus almashlab ekishlarda sabzavot, poliz, kartoshka kabi ekinlarni ekishga asoslangan. Umuman almashlab ekish muayyan xo'jalik tuprok-iqlim sharoiti, suv bilan ta'minlanish darajasi, mahsulot yetishtirish shartnomasi, ixtisoslashuvi va iqtisodiy samaradorligiga bog'liq. Kechki g'alla ekinlarini yozda yig'ishtirib olingach ular o'rniغا sabzavotlar ekish ham g'alla uchun yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi va bunda kech kuzda qo'shimcha sabzavot olishimiz mumkin. Bunda ko'chat va boshqa xarajatlar keskin kamayadi.

Sabzavotlar hosildorligini oshirish ko'p jixatdan ularning urug' navlariga bog'liq. Chunki bu navlar juda ko'p xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, pomidor navlari bir-biridan morfologik, biologik va xo'jalik ahamiyatiga ega belgi va xususiyatlari bilan farq qiladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: o'suv davrining uzunligi - shu belgisiga ko'ra pomidorda navlari tezpishar(birinchi

hosilgacha 48-53 kun), o'rtapishar (60-65 kun) va kech pishar (68-72 kun) navlarga bo'lishadi; poyasi, bargi, mevasining yirikligi, mevasining shakli, mevasining sirti, mevasining rangi, mevasining kameralarga bo'lishganligi, mevalarning mazaliligi va uzoq masofaga tashishga yaroqliligidir.

Bodring morfologik belgilari hamda shakllanish jarayonida ta'sir ko'rsatgan ekologik omillarni hisobga olgan holda yettita kenja turga bo'linadi. Shulardan quyidagi turlar asosiy hisoblanadi: Xitoy, Tarbiy Osiyo va Yevropa-Osiyo bodringlari hisoblanadi.

Karamning navlari bir-biridan morfologik belgilari xo'jalik- biologik xususiyatlari bilan farqlanadi. Uning eng muhim belgilari quyidagilar:

- tashqi o'zakning uzunligi: agar o'zak 16 sm gacha - kalta, 16-20 sm o'rtacha, 20 sm dan ortiq bo'lsa – uzun deyiladi;
- tupbarg yirikligi va uning yer betiga nisbatan joylashishi;
- tupbargdagi barg shakli, yirikligi, rangi va mum g'uborining mavjudligi;
- karamboshning shakli, yirikligi, qattiqligi hamda ichki o'zak uzunligi;
- karam boshining tayyor bo'lishi (pishishi) - kuchat o'tqazilgach, 2 - 2,5 oyda pishsa, tezpishar, 2,5 - 3 oyda pishsa o'rtapishar, 3-4 oyda pishsa kechpishar navlar deyiladi.
- karamboshning saqlanuvchanligi – muhim biologik va xo'jalik belgi bo'lib, boshning yorilmasligi, mazasi, va uzoq muddat saqlanishi bilan aniqlanadi. Karamboshi zinch o'raydigan navlari uzoq saqlanadi.

Piyoz navlari bir-biridan bir qator morfologik belgilari va biologik xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Ulardan muhimlari: bargining soni, yirikligi, rangi va ularda mum g'ubor mavjudligidir.

Piyozning shakli, ko'p uyaliligi, boshlang'ich murtakliligi - boshlang'ich murtaklar soni 1-2 ta bo'lsa kam, 2-3 ta o'rtacha va 3 dan ortiq bo'lsa ko'p deyiladi.

- piyozboshning yirikligi: 60 g gacha – mayda, 60 -120 g o'rtacha va 120 grammdan ortiq bo'lsa yirik bo'ladi;

- bosh piyozning etli va qoplovchi qobiqlarining rangi oq, sariq, jigar rang binafsha;
- piyozining zichligi va mazasiga ko'ra chuchuk, yarim achchiq va achchiq bo'lishidir;
- hayotining ikkinchi yilida shoxlashishi ko'ra: kam shoxlaydigan(1-3 gulpoyali) o'rtacha shoxlaydigan(3-5 gulpoyali) va ko'p shoxlaydigan (5 gulpoyadan ortiq) bo'ladi;

Gulpojasining buyi: past (50 sm gacha), o'rtacha (50-100 sm) va baland (100 sm dan ortiq) bo'ladi.

Sarimsoq piyozbosh ekinlar jumlasiga kirib, uning ertapishar, kechpishar va tezpishar navlari mavjud. Ertapishar navlari boshining ichida 7-10 ta palla, kechpisharinikida 8-10 ta palla va tezpisharinikida esa 5-10 ta palla bo'ladi. Barchasining rangi binafshaga o'xshashdir.

Quyida yuqorida qayd qilingan sabzavot ekinlarining Samarqand viloyati fermer va dehqon xo'jaliklarida ekiladigan urug'lari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan (4.2.1-jadval).

4.2.1-jadval Samarqand viloyatida ekiladigan asosiy sabzavot ekinlari urug'lari*

Sabzavot turlari	Asosiy navlar
Tomat	Volgogradskiy-5/95, Podarok 105, Progressivniy, Premogo-165
Bodring	Uzbekskiy 740, Ranniy 645, Konkurent, Hosildor
Karam	Gribovskaya 147, Iyunskaya rannyaya, Tashkentskaya10,
Oqbosh piyoz	Karatalskiy, Ispanskiy, Peshpazak, Samarkandskiy krasniy
Sarimsoq	Mayskiy, Yujno- fioletoviy, iranskiy.

*Manba: Hasanov Sh.T. Sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirish. Dissertatsiya. -Samarqand, 2006.

Hozir Respublikamizda tomatning Talalixin-186, Temno-krasnnyi-2077, Vostok-36, Yusupovskiy, Volgogradskiy 5-95 kabi ochiq maydon uchun ekiladigan navlari, qalampirning Bolgarskiy-79;89, Dar Tashkenta, boyimjonning Avrora, Yerevanskiy, oqbosh karamning Saratoni, Navro'z, Galaksi kabi navlari, piyozning esa Karatalskiy, Peshpazak, Ispanskiy-313 kabi navlari ekiladi. Albatta har bir sabzavot turining o'stirish texnologiyasi o'ziga xos xususiyatga ham ega.

Samarqand viloyatidagi shirkat xo'jaliklarining asosiy qismida sabzavotning tomat(pomidor) turi ko'p ekiladi. Yetishtirish texnologiyasi dastlab yer tanlashda oziq moddalarga boy, mexanik tarkibi yengil qumloq, sho'rланмаган yerlar yaroqli hisoblanadi. Pomidor uchun beda, ko'kat, poliz ekinlari, bodring, karam yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi.

Ma'lumki sabzavotlarning hosildorligi, aynan shu sabzavot uchun o'tmishdosh ekinlar bilan ekishning joriy qilishga ham bog'liq.

4.2.2-jadval

Samarqand viloyati sharoitida sabzavot mahsulotlari uchun tavsiya qilingan asosiy o'tmishdoshlar*

Sabzavot turlari	Asosiy o'tmishdoshlar
1. Tomatdoshlar uchun	beda, poliz ekinlari, piyoz, yashil ug'it sifatidagi sideratlar
2. Karam uchun	poliz ekinlari, kartoshka, ildizmevalilar, pomidor, beda, yashil o'g'it sifatidagi sideratlar, g'alla ekinlari
3. Piyoz uchun	karam, poliz ekinlari, kartoshka, pomidorlar, yashil o'g'it sifatidagi sideratlar
4. Bodring uchun	ildizmevalilar, karam, kartoshka, poliz ekinlari, g'alla ekinlari.

*Manba: Hasanov Sh.T. Sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirish. Dissertatsiya. -Samarqand, 2006.

Yuqorida 4.2.2-jadvalda keltirilgan 4 xil sabzavotlar uchun ham, o'zaro bir-biriga o'tmishdosh bo'lib hisoblanadiganlari deyarli takrorlanadi. Faqat ayrimlari, yani bodring uchun sideratlar, g'alla ekinlari, boshqa sabzavotlar uchun esa bodring o'zi o'tmishdosh hisoblanmas ekan. Sabzavotlar hosildorligini oshirishda o'g'itlashning roli alohida ahamiyatlidir. O'g'itlashda gettariga 20-30 tonna go'ng, 150-200 kg kaliy xlori 230-250 kg ammosof kuzgi shudgorlashdan oldin va o'suv davrida 120-150 kg azot beriladi.

Urug'larni ekishda nav tozaligi 98 % va unuvchanligi 85 % dan kam bo'limgan 1 klass urug'lar tanlanadi. 1 hektar uchun urug' sarfi 350-400 gr hisoblanadi. Quyidagi jadvalda urug' navlarining sifatlari berilgan bo'lib, unga rioya qilish va me'yorga yaqinlashtirib nav tozaligiga erishish hosildorlikni oshirishning yana bir muhim tomonidir.

Demak, urug' tarkibidagi aralash navlar ruxsat etilgan me'yor sarimsoq va karam uchun ko'prok bo'lib, piyoz, sabzi va bodringga bir xil va pomidor uchun deyarli aralash urug'lar bo'lmasligi shartdir.

Sabzavotlar hosildorligini oshirish, ularni ekishning agrotexnik qoidalariga to'liq rioya qilishni talab etadi. Yerlar ertangi tomatni ekishda aprel o'rtalarida chizzellab, baronalab, tekislanadi. So'ngra ko'chat o'tqazish uchun jo'yaklar olinadi. Ko'chatlar parnikdan olib o'tqazilganda ekish muddati 10 apreldan boshlab to 10 maygacha tugatiladi. Qator oralari 70, 90 sm tup oralari nava qarab 25-40 sm qilib, gektariga 50-60 mingtagacha ko'chat o'tqaziladi. O'simlik mevasini g'o'za tunlami(kusak qurti) qattiq shikastlaydi. Shuning uchun ularga karshi trixogrammalar, zaxarli yemlar qo'yiladi. Kimyoviy usulda gektariga 2-3 kg xlorofos, entobakterin qo'shib sepiladi. Umuman ekinni bir me'yorda sug'orilib, tuproq namligi saqlab turilsa, qo'ng'ir dog'lanish, mevaning uchidan chirish kasalligi keskin kamayadi. Xozirgi paytda pomidor ochiq va yopiq maydonlarda virusli kasalliklar bilan kasallanmokda. Ularga qarshi ekisholdi termik ishlanib, 2 sutka davomida urug'lar 50-52 °S, sungra 1 sutka 80 °S da termostatda qizdiriladi.

Hosilni yig'ishtirish qo'lda yoki mashinada amalga oshiriladi. Bunda eng katta muammo pishgan hosilning shikstlanishi va mahsulotning tez buziluvchanligidir. Shuningdek, pishmagan mevalarni kech kuzda terib olib, saqlab qizartirish usuli ham qo'llaniladi. Tomatning yana bir xususiyati uni takroriy ekin sifatida yozda g'alladan bo'shagan maydonlarga ekilsa ham yaxshi xosil beradi. Bunda yuqorida ta'kidlaganimizdek ko'chat xarajatlari 5-6 baravar arzonlashadi. Uning gektaridan 200-300 s xosil olish mumkin. Kuzgi g'alladan bo'shagan maydonlarga tomatning tezpishar Volgogradskiy-5/95, Temnokrasniy-2077, Novinka Pridnestrovya kabi navlar ekiladi.

Shuningdek tomatni ko'chatsiz urug'idan o'stirish ham mumkin, bunda urug' xarajatlari qisqaradi, ammo hosildorligi deyarli farq qilmaydi. Qiyinchilik tomoni dalaga urug'idan ekilganda dastlab rivojlanish juda sust bo'ladi hamda begona o'tlar va qatqaloq qisib qo'yishi mumkin. Shunday bo'lsada Samarqand, Surxandaryo va Qashkadaryoda bunday usul qo'llanilmoqda. Sabzavotlarning

xususiyatlaridan kelib chiqib, ulardan bo'shagan maydonlarga takror ekish ham katta ahamiyatga ega.

4.2.3-jadval

Samarqand viloyati sug'oriladigan yerlarida ikki hosil olish uchun ekinlarni joylashtirish*

Asosiy ekinlar (birinchi ekin)	Takroriy ekinlar (ikkinchi ekin)
Kuzgi g'alla	-kechki kartoshka, pomidor, kechki karam, sabzi, sholgom, turp, kechki bodring
Ertagi karam	-kechki kartoshka, ildizmevalilar, kechki pomidor, sabzi
Ertagi sabzi	- kartoshka, karam, kechki bodring
Ko'kat ekinlari (xosil yig'ish aprel-may)	- paxta, kartoshka, poliz ekinlari, pomidor
Ertagi bodring (hosil yig'ish iyun-iyul)	- sholg'om, turp, ertagi piyoz, makka silos uchun

*Manba: Hasanov Sh.T. Sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirish. Dissertatsiya. -Samarqand, 2006.

Sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishning agrotexnik sharoitlari va texnologik jarayonlarning samarali amalga oshirilishi, pirovard natijada ular hosildorligining oshishi bilan xarakterlanadi. Hosildorlikni oshirish, ma'lumki paxta yoki g'alla ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo'jaliklarga nisbatan aynan sabzavot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda muhim va ahamiyatlidir. Mehnat taqsimoti amalga oshirilganda sabzavot ekinlari, ularni iste'molchilari ko'p bo'lган joylarga joylashtirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan axoli ko'p va zich joylashgan, ya'ni shaxar atroflariga ekishni taqozo kiladi. Keyinchalik esa nafaqat ishlab chiqarish, balki qayta ishlab, yarim fabrikat, xatto tayyor mahsulot qilib sotadigan agrofirmalar kabi yirik ishlab chiqarish tuzil malari barpo qilinadi.

4.3. Sabzavotchilikda rentabellikni oshirish yo'llari

Fermer xo'jaliklarida sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, xalqni vitaminli mahsulotlarga bo'lган ehtiyojini amalga oshirish agrosanoat majmuasi xodimlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Negaki, kundalik turmushimizni, dasturxonimizni hayot faoliyatimiz uchun zarur turli xil sabzavot mahsulotlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hukumatimizning agrar sektorini, jumladan sabzavotchilikni rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilayotganligining boisi ham shunda. Sabzavot yetishtirishni ko'paytirish uchun Samarqand tumanida ham katta rezerv va imkoniyatlar mavjud. Xususan, bu yerda tuproq, iqlim sharoiti, dexqonchilik uchun qulay,fan tavsiyalari aso-sida, tajribakor dehqonlar mehnati natijasida vujudga kelgan boy tajribalar bor. O'tgan yili viloyatimizda barcha kategoriyalardagi sabzavot mahsulotlaridan 348,3 ming tonna ishlab chiqildi. Bu mamlakatimizda yetishtirilayotgan 17 % ini tashkil etadi.

Oxirgi yillarda sabzavotchilik tarmog'i asosiy mahsulotlarining rentabellik darajasi ko'pchilik, ayniqsa shaharlar atrofida joylashgan xo'jaliklarda, bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga mos ravishda o'zgarmoqda. Bu yutuqqa odatda erkin va shartnoma baholarining ko'tarilishi hisobiga erishilmoqda.

Ammo ko'pchilik fermer xo'jaliklarda 1 s sabzavotning o'rtacha to'liq tannarxi yildan yilga ko'tarilmoqda. Bunday holat asosan mehnat unumdorligining pastligi, zararkunanda va kasallika qarshi kurash hamda urug' xarajatlarining ko'payishi hisobiga sodir bo'lmoqda. Ilg'or xo'jaliklar va ilmiy-tekshirish institutlari tajriba natijalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, yuqori va sifatli hosil olish va uning tannarxini pasaytirish uchun quyidagi real imkoniyatlardan to'laroq foydalanishga e'tibor berish lozim:

Ko'pchilik sabzavotlarning suvg'a talabchanligi, uning ildiz sistemasining tuproqda yuza joylashishi va kam rivojlanganini hisobga olib, uni o'z vaqtida va belgilangan me'yorda sug'orishni tashkil etish, masalan, bosh piyozni 18-20 marta 500-600 m.kub hajmida; sarimsoqni 7-10 marta 500-600 m.kub hajmida; pomidorni 15-16 marta 600-700 m.kub hajmida; bodringni 12-14 marta 550-600

m.kub hajmida va h.k. Qisqa muddatlarda sug'orilsa hosildorlik yuqori va sifatli bo'ladi;

Sabzavot ekinlarini tabiiy va sun'iy unumdorligi yuqori uchastkalarga joylashtirilishi lozim; kuchli sho'rланagan yerlarda hosildorlik keskin pasayib ketadi;

Sabzavot ekinlari tuproqdan hosil bilan birga ko'p miqdorda ozuqa moddalarini olib chiqishini hisobga olib, o'simliklarning o'sish va rivojlanish davrida ozuqa moddalariga bo'lgan talabning keskin tafovutini hisobga olib va h.k. ularni oziqlantirish ilmiy asoslangan miqdorlarda va muddatlarda amalga oshirilishi zarur;

Sabzavotchilikda mineral o'g'itlar bilan mahalliy o'g'itlar (chirigan go'ng, sideratlar) birga qo'llanilsa, ularning samaradorligi yuqori bo'ladi;

Sabzavot ekinlarining oziqlanishida molibden, marganes, bor, mis, rux, kobalt kabi mikroelementlardan foydalanish xam katta ahamiyatga ega. Ulardan foydalanish ekinlar hosildorligini 15-20% ga oshiradi, sifatini yaxshilaydi, kasalliklarga chidamliligini oshiradi;

Ayrim sabzavotlar ko'chat shaklida ekiladi. Ularni o'z vaqtida tayyorlash va sifatini ko'tarish maqsadida yopiq maydon sabzavotchiligini tashkil etish zarur.

Sabzavot ekinlarini boshqa ularga mos ekinlar bilan almashlab ekishni amalga oshirish lozim, ilg'or xo'jaliklar tajribasi shuni ko'rsatadiki bedapoyadan bo'shagan yerlar, polizlar, shuningdek, dukkaklilar karam, piyoz uchun eng samarali o'tmishdosh hisoblanadi. Sabzavot ekinlari ko'pi bilan 3-4 yilda oralatib ekilishi kerak.

Sabzavot ekinlarining hosildorligi va sifatini oshirish uchun eng muhim omil davlat standart (GOST) reyestridan o'tkazilgan sifatli, toza, sog'lom unuvchanligi yuqori nav, elita, 1 klass urug'larini ekish maqsadga muvofiqdir;

Tovar mahsulotlarini erkin va shartnoma, bozor iqtisodiyotining qiymat, talab va taklif qonunlari talablari asosida tashkil topgan baholarda sotish va h.k.

Samaradorlikni oshirish omillari deganda eng avvalo foyda omillari tushuniladi. Foyda omillari 2 guruxga bo'linadi:

1. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga boglik bo'lgan va subyektiv xarakterga ega bo'lgan ichki omillar.

2. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga boglik bo'l'magan va obyektiv xarakterga ega bo'lgan tashki omillar.

1. Ichki omillarga sotiladigan mahsulot mikdori, uning sifati, ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Sotiladigan mahsulot mikdori yalpi mahsulot xajmiga va uning tovarlilik darajasiga boglik. Yalpi mahsulot xajmining usishida sotishga muljallangan mahsulotning mikdori absolyut ko'payadi. Shuningdek, uning ishlab chiqarish ichki iste'moliga ketadigan qismining usishi nisbiy ko'payadi. Yalpi mahsulotning ana shu ichki iste'molga ketadigan qismi usish sur'atining pasayishi tovarlilik darajasining oshishiga va shu asosda pul tushumining ko'payishiga sharoit yaratadi. Yukori sifatlari mahsulot ancha yukori sotish baxosini ta'minlagani uchun, mahsulot sifati pul tushumi orkali foyda mikdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Pul tushumi mikdori mahsulotni sotish muddatlariga, sotish bozoriga va uning tarkibiga boglik. Bundan tashkari pul tushumi sotish kanallariga ham boglik. Uning davlatgami, matlubot kooperasiyasigami yoki bozorgami sotilish ham aloxida ahamiyatga ega.

Foydaning muhim omillaridan biri mahsulot tannarxidir. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi yoki oshishi foyda mikdoriga ancha sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonaning umumiy tushumi korxonaning jami sotuvi bo'lib, u o'zida tannarx va daromadni aks ettiradi. Qachonki umumiy tushum umumiy xarajatdan oshsagina, korxona foyda olishi mumkin.

Biroq viloyat ko'p yillik tajribasiga ko'ra ochiq maydonlarda sabzavot yetishtirish bilan hamma xo'jaliklarda ham rentabellik darajasining yuqori bo'lishini ta'minlashga erishmagan. Amalda barcha fermer xo'jaliklari ham xo'jalik hisobi va o'z-o'zini mablag' bilan ta'min etishga qodir emas. Bu sohadagi tafovudlar viloyat qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hamda fermer xo'jaliklari hisobotlarida, yig'ilishlarida, ilmiy tadqiqotlarning tahliliy ma'lumotlarida

aniqlanmoqda. Jumladan o'tgan yili xo'jaliklarda ochiq yerda yetishtirilgan sabzavot rentabelligi 42,2 % bo'lgan holda ayrim xo'jaliklarda 14,8 % ni tashkil etdi. Bunda ba'zi xo'jaliklar o'rtasidagi rentabellilik darajasi 4% dan 63 % gacha farq qiladi. Ana shunday tafovutlar sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan Samarqand tumani fermer xo'jaliklari uchun hamtavsiflidir. Misol uchun ochiq yerda yetishtirilgan sabzavotning tovar qismi rentabelligi Temir bobo fermer xo'jaligida 48,9-64,3 % bo'lgan holda, Mushtariy xo'jaligida atigi 8,5 % ni tashkil etdi. Bu tafovutlarning asosiy sababi shuki, ko'p hollarda tannarx oshib kelmoqda, sifat past bo'layapti. Mahsulotning assortimentidagi turlari bajarilmayapti. Uning o'rtacha sotish bahosi birligi belgilanganidan ortiqcha bo'lmoqda.

Umuman dehqonchilikni tashkil etish, texnik va boshqa imkoniyatlaridan foydalanish darajasi, fermer xo'jaliklari o'rtasidagi tafovutlar pirovardida hosildorlikka namoyon bo'ladi. Shu jihattan olib qaraganda, viloyatimizva tuman respublikada yetakchi o'rnlarda turadi. Biroq 1987 yil natijalarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlanganidek, agrosanoat majmuasining hamma yo'nalishlarida ham yer, suv, iqlim sharoiti, mehnat resurslari intensiv texnologiyalardan samarali foydalanilmayapti deb bo'lmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerak, ko'pgina fermer xo'jaliklarda hosildorlik foizlari ketidan quvilib, sifati unitilib qo'yilyapti. Mahsulotni ko'proq olish maqsadida mineral o'g'itlar meyorsiz va tartibsiz, ilmiy-amaliy tavsiyalarga riosa qilinmagan holda berilmoqda. Mahalliy o'g'itlar chiritilmasdan me'yorsiz berilmoqda. Bu, sabzavot mahsulotlarini sifatiga putur yetkazayapti. Uni saqlash va realizasiya qilishda isrofgarchilikka olib keladi. Jumladan, Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan sabzavot mahsulotlari tarkibida talab qilinadigan elementlar yetarli bo'lmay qolmoqda. Viloyatning boshqa tumanlarida ham ahvol juda yaxshi emas. Natijada har yili beriladigan buyurtmalar to'liq bajarilmayotir yoki tuzulgan shartnomalar shartlari buzilmoqda. Mahsulotlarning 25-30 % i sifati buzilib iste'molchilarga yetib bormayapti.

Sabzavot mahsulotlari yetishtirish tannarxining Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida oshib borayotganligi, sifatning talabdan orqada qolayotganligidir.

Sabzavotchilik fermer xo'jaliklarida sabablaridan yana biri shuki, ishlab chiqarish xo'jaliklarda hamon qo'l kuchiga asoslanmoqda. Natijada mehnatga to'langan haq to'g'ridan to'g'ri tannarx hisobiga qo'shilayapti. O'tgan yili tumanda 1 s sabzavot uchun o'rtacha umumiylarining 32,6 foizi mehnat haqi sifatida to'landi. Tayloq tumani xo'jaliklarida esa bunga qo'shimcha ravishda transport, idishlar ishlab chiqishni tashkil etish, boshqaruv xarajatlari ham qo'shilmoqda. Oqibatda tannarxning 12 foizdan 13,4 foizgachasi boshqaruv apparati xodimlariga sarflanmoqda.

Keyingi yillarda sabzavot mahsulotlarining xarid narxini ko'paytirish maqsadida sifatli sabzavotlar yetishtirishga ahamiyat berilmoqda.

Sabzavotchilikni ilmiy texnikaviy asoslarda rivojlantirish, tarmoqning rentabelligini ta'minlash, hosilni sifatli yig'ishtirib olish, qayta ishslash, sotishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida respublikada mulkchilikning turli shakllari joriy etildi, kreditlar berish, imtiyozlar berish kabi imkoniyatlar yaratildi.

5. FERMER XO'JALIKLARIDA SABZAVOT ISHLAB CHIQARISHDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH

Mehnat huquqida mehnat muhofazasi atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda bu atama mehnatini qo'llashga oid barcha masalalar majmuini o'z ichiga oladigan va mehnat huquqining turli bo'limlari (mehnat shartnomasi, ish va dam olish vaqt va boshqalar)ga taalluqli huquq normalari yig'indisi tushuniladi. Bular jumlasiga ishga qabul qilishdan asossiz bosh tortishni taqilovchi, xodimlarni ishdan bo'shatish va boshqa ishga o'tkazishni chekllovchi, ish vaqt chegaralarini belgilovchi hamda boshqa ko'plab qulay mehnat sharoitlari yaratilishiga qaratilgan yo'nalishlar kiradi.

Tor ma'noda esa mehnat muhofazasi atamasi xodimlar uchun xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlari yaratish, ishlab chiqarish uchastkalarida texnikaviy, sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta'minlash maqsadida belgilangan standartlar va normativlarning ishlab chiqilishi va ularga amal qilishni ta'minlashga oid iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

Mexnat muhofazasi texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasini ham o'z ichiga oladi. Texnika xavfsizligi deganda ishlab chiqarishni zararli omillari ta'sirini bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnikaviy vositalar tizimi nazarda tutiladi. Ishlab chiqarish sanitariyasi deganda, ishlab chiqarishning zararli ta'sirlarining oldini olishga yoki ularni kamaytirishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnikaviy vositalar tizimi tushuniladi.

Mehnat muhofazasiga oid qonunlar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxona va tashkilotlarga, kooperativlar, dehqon-fermer xo'jaliklarida yollanib ishlayotgan yoki a'zo bo'lgan holda mehnat qilayotgan barcha fuqarolarga, ishlab chiqarish amaliyoti davrida korxonalarga jalb etilgan o'quvchilar va talabalarga, korxonadagi ishlarga jalb etilgan harbiy xizmatchilarga, muqobil xizmatni o'tayotgan shaxslarga, shuningdek davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan boshqa ishlarga jalb etilgan barcha fuqarolar mehnatini muhofazalashga nisbatan tadbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati asoslari bayon etilgan bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'ligi ustuvorligi bu siyosatning bosh qoidalaridan birini tashkil etadi.

Mehnat kodeksining 211-moddasiga ko'ra, mehnat muhofazasi mexnat munosabatlarining muhim tarkibiy elementi hisoblanib, undan ish beruvchi uchun ham, xodim uchun ham muhim huquqlar va majburiyatlar vujudga keladi.

Mehnat kodeksining 212-moddasida mehanat muhofazasi yuzasidan xodimlarning majburiyatları ko'rsatilgan bo'lib unga ko'ra, "Xodim mehnatni muhofaza qilish normalariga, qoida va yo'riqnomalariga, shuningdek ma'muriyatning ishni bexatar olib borish haqidagi farmoyishlariga rioya qilishi, olingan shaxsiy vositalardan foydalanishi, insonlar hayoti va sog'ligiga bevosita xavf soladigan har qanday holat haqida, shuningdek ish jarayonida yoki u bilan bog'liq holda sodir bo'lган har qanday baxtsiz hodisa haqida o'zining bevosita rahbarini (brigadiri, ustasi, uchastka boshlig'i va boshqalarni) darhol xabardor qilishi shart". Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga qat'iy amal qilish xodimning burchi bo'lib, unga rioya etmaslik intizomiy javobgarlikka va intizomiy jazo qo'llanishiga sabab bo'ladi. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishini tekshirib borish va zarur shart-sharoitlari bilan ta'minlash ish beruvchining majburiyatları sirasiga kiradi.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunning 9-moddasida korxonalar va obyektlarni loyihalash, qurish va ishlatishda, ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash va ta'mirlashda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash choralarini belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra mehnat muhofazasi talablarga javob bermaydigan korxona va obyektlarning ishga tushishi ta'qiqlanganligi ko'rsatilgan.

Sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan profilaktik choralar jumlasiga yuqoridagilardan tashqari, korxonalarda texnika xavfsizligini ta'minlash xizmati bo'lishi lozimligi haqidagi (mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunning 14-moddasi) mehnatni muhofaza qilishga oid yo'riqnomा va boshqa me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi, xodimlarning yakka himoyalanish vositalari bilan ta'minlanishlari va bu vositalardan foydalanish xodim uchun majburiy ekanligi, zararli ishlab chiqarish sharoitlarida band bo'lgan xodimlarning kasallikka chalinishlarining oldini olish maqsadida belgilangan me'yorlarga muvofiq profilaktik oziq-ovqat mahsulotlari, sho'r suv, sut va sut mahsulotlari bilan ta'minlanishlari, ayrim toifaga mansub yoki zararli mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarni ishga qabul qilish paytida hamda ish davomida vaqtiga bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish lozimligi, sog'lig'i holatiga ko'ra xodimlarni yengilroq ishga o'tkazib turilishi kabi tadbirlar ham kiradi.

Mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va ishlovchilar sog'ligi hamda hayotiga xavf tug'diruvchi korxonalar faoliyati yoki ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, ular mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirulgunga qadar, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda vakolatli idoralar tomonidan to'xtatib qo'yilishi kerak.

Ish beruvchi mehnat shartnomasi tuzish chog'ida dastlabki tarzda va keyinchalik (ish davomida) vaqtiga bilan quyidagi xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi shart:

- o'n sakkiz yoshga to'limganlar;
- oltmis yoshga to'lgan erkaklar, ellik besh yoshga to'lgan ayollar;
- nogironlar;
- mehnat sharoiti noqulay ishlarda, tungi ishlarda, shuningdek transport harakati bilan bog'liq ishlarda band bo'lganlar;
- oziq-ovqat sanoatida, savdo va bevosa aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlardagi ishlarda band bo'lganlar;
- umumta'lim maktablari, muktabgacha tarbiya va boshqa muassasalarning bevosa bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan mashg'ul bo'lgan pedagog

va boshqa xodimlari.

Mehnat sharoiti noqulay ishlar va bajarayotganida dastlabki tarzda va vaqtiga bilan tibbiy ko'rikdan o'tilishi lozim bo'lgan boshqa ishlarning ro'yxati va ularni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlar tibbiy ko'rikdan o'tishidan bo'yin tovlashga haqli emaslar. Ish beruvchi tibbiy ko'rikdan o'tishdan yoki tibbiy komissiyalarning tekshiruvlar natijasida bergen tavsiyalarni bajarishdan bosh tortgan xodimlarni ishga qo'ymaslikka haqlidir.

Xodimlar mehnatidan ularning sog'ligi holatiga to'g'ri kelmaydigan ishlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Agar xodim o'z sog'ligining holati mehnat sharoiti bilan bog'liq holda yomonlashgan deb hisoblasa, u navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tkazishni talab qilishga haklidir. Tibbiy ko'rikdan o'tishi munosabati bilan xodimlar chiqimdar bo'lmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Uzbekiston Kasaba uyushmalari Federasiyasi Kengashi bilan bиргаликда mehnatni, atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan standartlari, qoida va me'yorlarini ishlab chiqish va qabul qilish yo'li bilan ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan talablar darajasini belgilaydi, shuningdek kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar, kasb kasalliklarining oldini olishga oid respublikaning ansq maqsadga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqadi va moliyaviy ta'minlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Vazirliklar va idoralar tegishli kasaba uyushmasi idoralari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilashga oid tarmoq dasturlarini ishlab chiqadilar va moliyaviy ta'minlaydilar.

Respublikamizda chuqur iqtisodiy o'zgarish bo'layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi, yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ko'p bosqichli talim tizimiga binoan oliygochlarda tayyorlanadigan bakalavrular uchun o'quv rejasiga «Hayotiy faoliyat

xavfsizligi» fanining kiritilishi bo’lg’usi mutaxassislarning bilimini chuqurlashtirilishiga yordam berishi so’zsizdir.

Insonning hamma faol xarakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda xamda sportda) uning faoliyatini tashkil kiladi.

1. Xayotiy faoliyat xavfsizligi fani o’z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo’limlarini qamrab olgandir. Xayotiy faoliyat xavfsizligi prinsip va usullar asosida: baxsiz, xodisalar, qurbanlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo’yadigan va xal qiladigan fandir. XFX-bu xar qanday ko’rinishdagi faoliyatga qo’llanishi mumkin bo’lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

«Hayotiy faoliyat xavfsizligi» kursi bo’lg’usi mutaxassislarni mehnat muxofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti xamda mehnat muxofazasini yaxshilash muammolarini ijobiy xal etishga qiziqish uyg’otishga mo’ljallangan. Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir.: ishlab chikarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chikarishda sodir bo’ladigan yong’in xamda portlashlar sabablarini xar tomonlama taxlil qilish; ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini o’rganish; to’qimachilik, paxta, ipak va yengil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og’ir hamda sermehnat ishlarni mexanizasiyalash va avtomatlashtirishni ko’zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholash. Mazkur kurs «Ergonomika», «Muxandislik psixologiyasi», «Mehnatni ilmiy tashkil qilish», «Texnik estetika», «Mehnat fiziologiyasi va gigiyenasi», «Huquqshunoslik», «Iqtisodiyot», «Atrof muhitni muhofaza qilish» kabi fanlar bilan bog’langandir.

O’zbekiston Davlat standarti ishlab chiqish va joriy etish ustida ish olib bormoqda. Bu majmualar ishlab chiqarish uskunalari va jarayonlariga, ishlovchilarni himoyalash vositalariga hamda korxonalarining mehnat muhofazasi sohasidagi ishni tashkil qilishga taalluqlidir.

Yangi texnologik jarayonlarning yaratilish, yangi ashyolarning qo’llanishi prinsip jihatdan yangicha yondoshuvni, mehnat xavfsizligini taminlashning yangi

usullar xamda vositalarini ishlab chiqishni, shuningdek ana shu masalalar bo'yicha yangi me'yortivlarni yaratishni taqozo etadi. Shu sababli mehnat muhofazasiga doir meyoriy xujjatlarni tartibga solish zarurati paydo bo'ldi. Bu hujjatlar davlat standartlashtirish sistemasining tarkibiy qismiga aylanadi.

Mehnat havfsizligi standartlari majmuasi (MXSM)-bu o'zaro bog'liq standartlar majmuasidan iborat bo'lib, ular uch guruxga bo'linadi va quyidagilarni belgilaydi: xavfli va zararli ishlab chiqarish omillariga doir umumiy talablar hamda meyorlar; ishlab chiqarish jarayonlariga doir xavfsizlikning umumiy talablari; ishlovchilarni ximoyalash vositalariga doir talablar; mehnat xavfsizligini baholash metodikasi. Sanoat korxonalarining texnologik uskunalariga doir umumiy talablari «Mehnat xavfsizligi talablari majmuasi. Sanoat korxonalari uchun texnologik uskunalar. Xavfsizlikning umumiy talablari» da bayon etilgan.

Texnika taraqqiyoti natijasida zamonaviy mexanika - mashinasozlik korxonalarida turli tuman jihozlarning kirib kelishi, shuningdek bu mashinalarning unumdorligini oshirishga talabning kuchayganligi, mashinalarning iloji boricha kam material sarflab, qo'l bilan bajariladigan vazifalarni mexanizmlar zimmasiga yuklash natijalari insonga tasir etuvchi qo'shimcha hodisa, titrash hodisasini kelib chiqishiga olib keldi. Titrash sanoatda ishchining ish unumdorligini kamaytiribgina qolmasdan, balki uning sog'ligiga ham tasir ko'rsatishi va bu ta'sirning oldi vaqtliroq olinmasa, xavfli titrash kasalligiga olib kelishi aniqlandi. Shuning uchun ham titrashga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega.

Hayotiy faoliyat xafvsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi.

Faoliyat-insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat-faoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, inosnning ta'rifi-harakatdagi, mehnatdag'i faoliyatidadir.

Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Har qanday faoliyat yashirin (potensial) xavflidir. Shu bilan birga xavf darajasini boshqarish ham mumkin. Bu f ikr mutlaqo xavfsiz faoliyat bo'lmasligiga asoslangan.

Xavfsizlik – bu ayrim ehtimollarga asoslanib paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni istisno etilgan faoliyat holatidir.

Xavfsizlik–bu maqsad, XFX bo'lsa shu maqsadga erishish uchun qo'llanadigan vositalar, yo'l-yo'riq, qo'llanmalar usullardir.

XFX – bu xavf-xatarlarni o'rganish va insonni himoya qilishni o'rganadigan fandir.

3. Xavfsizlikning umumiyligi nazariyasining tuzilishida tamoyil (prinsip)lar va usullar ko'rileyotgan bilim sohasida aloqador to'g'rsida to'la tasavvur qilishga metodologik ahamiyatga ega.

Asos (negiz, prinsip)-bu fikr, g'oya, maqsad (asosiy holatdir).

Usul-bu eng umumiyligi qonuniyatlarni bilish orqali maqsadga erishish yo'li.

Xavfsizlikni taminlash choralar – bu usullarni va asoslarni amaliy, tashkiliy, moddiy gavdalantirib amalga oshirishdir.

Asoslar, usullar, choralar – bu xavfsizlikni tamin etishdagi mantiqiy pog'onalaridir. Ularni tanlab olish faoliyatning aniq sharoitlariga, xavfnинг darajasiga va boshqa mezonlarga bog'liq.

4. Inson o'z mehnat faoliyati jarayonida bo'ladigan fazo – ish joyi deb ataladi (gomosfera). Xavf mavjud yoki vaqt-i vaqt bilan paydo bo'ladigan fazoni noksosfera deyiladi. Xavfsizlikni taminlashga quyidagi 3 xil usullar orqali erishiladi:

a) Gomosfera va noksosferani fazoviy va vaqtiy manoda ajratib qo'yish, buni xal qilish uchun masofadan boshqarish, avtomatlashtirish, robotlashtirish vositalari yordamidan foydalaniladi.

b) Xavflarni yo'qotish yo'li bilan noksosferani meyorlashtirish. Bu usulga ishchilarining shovqin, gaz, changdan, jarohatlanishidan saqlaychi shaxsiy va kollektiv himoya vositalari qo'llash.

d) Bu usul ishchilarni tegishli muhitga moslashishga, uni himoyalash darajasini ko'tarishga yo'naltirilgan xar xil vositalar va usullarni o'z ichiga oladi. Kasbiga qarab tanlash, ruhiy tasir va (shaxsiy) himoya vositalari qo'llash. Amalda esa yuqorida aytilgan usullar (kombinasiyasi) birgalikda ko'llaniladi.

Xavfsizlikni taminlovchi vositalarga, jamoa (kollektiv) va shaxsiy himoya vositalari kiradi. (JXV va ShXV). Ular o'z yo'lida xavflarning turiga, tuzilishiga, ishlatish sohasiga nisbatan guruxlarga bo'linadi.

5. Mehnat muxofazasi bo'limi «Xayotiy faoliyat xavfsizligi» fanining mutaxassislikka tegishli asosiy nazariy kismini beradi. Anik muammolar, transport vositalari, texnologikjarayonlar, ish turlari, bino va inshootlar uchun xavfsizlikni taminlash xar bir fanning mutaxassislik kurslarida beriladi.

Mehnat muhofazasi borasida ilmiy tadqiqot ishlarini mehnatni muhofazasi qilish institutti va oliy o'quv yurtlarining XFX kafedralari, ko'plab tibbiyot ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida olib boriladi. Odatda barcha standart va texnik talablarga «Xavfsizlik texnikasi» talablari kiritiladi.

Mehnat sharoitining yaxshilanishi ijtimoiy natijalarga-yani mehnatkashlarning sog'lig'ini yaxshilash, o'z ishidan mamnunlik darajasini oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash, ishlab chiqarish va jamoat faoliyatini oshirishga olib keladi.

Mehnat muxofazasi talablariga javob bermaydigan biron bir yangi mashina yoki mexanizm ishlab chikarishga kabul kilinmasligi kerak. Shuningdek mehnat muxofazasi talablariga javob bermaydigan biror tex yoki korxona ekspluatasiyasiga tushirilmasligi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida sabzavot va ularni qayta ishlab chiqarishdan olingan asosiy mahsulotlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish xalq xo'jaligida muhim ahamiyatiga ega. Sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida nisbatan juda katta hajmda mehnat, yer-suv va buyumlashgan moddiy va intellektual resurslardan keng foydalaniladi. Qishloq xo'jaligida sabzavotchilik muhim tarmoqlardan biri hisoblanib, uning mamlakat xalq xo'jaligida o'rni beqiyos shu sababli barcha tumanlar sabzavotchilik bilan shug'ullanadi.

Tayloq tumani fermer xo'jaliklari misolida tahlil qildik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tayloq tumani fermer xo'jaliklarining ekin maydoni o'simlikchilikda 2013 yilda jami 14916 getktarni tashkil qilgan. 2013 yil 2011 yilga nisbatan 0,5 foizga oshgan.
2. Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda asosiy vositalarning qiymati 20135,0 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga nisbatan 790,8 mln.so'mga oshgan.
3. 2013 yilda fermer xo'jaliklari a'zolari soni 13584 kishi bo'lib, 2011 yilga nisbatan -5069 kishiga yoki 27,2 %ga kamaygan.
4. Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida rentabellik darajasi 2013 yil 2011 yilga nisbatan -1,9 punktga kamaygan.
5. Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida 2013-yilda sabzavot yetishtirish uchun jami 4085 getktar ekin maydoniga sabzavot yetishtirilib o'rtacha 1 getktardan 221,3 s/ga sabzavot mahsulotlari olingan. Yalpi xosil 904011 s.ni tashkil etgan.
6. Sabzavot yetishtirishga jami 24739 mln so'm xarajat qilib 34359 mln so'm daromad olgan. Natijada sabzavotchilikda olingan foyda 9620 mln so'mni tashkil etgan.
7. 2013 yil 2011 yilga nisbatan ekin maydoni 285 getktarga yoki 107,5 foizga, xosildorlik 16,8 s/ga yoki 108,2 foizga oshgan. Natijada ekin maydoning 285

gektarga hamda xosildorlikning 16,8 s/ga oshishi hisobiga yallpi xosil 126911 s.ga yoki 116,3 foizga oshgan.

8. Fermer xo'jaliklarda sabzavotni sotish rentabellik darajasi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan -27,9 punktga kamaygan, asosan ushba kamayishga ikkita omilning ta'siri ya'ni, birinchi omil 1 s sabzavotni ishlab chiqarish tannarxi hisobiga -29,0 punktga oshganligi va ikkinchi omil ya'ni, 1 s mahsulotdan olingan baho hisobiga -28 punktga kamayganligi hisobiga yuz bergen.

9. Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda 1 s sabzavotning tannarxi 27,3 ming so'mni tashkil etgan va 2011 yilga nisbatan 9,2 ming so'mga oshgan va bu o'zgarish 1 ga yerga qilangan xarajatning 2350,3 ming so'mga oshgani tannarxning 11,5 punktga oshishiga sabab bo'lган bo'lsa, hosildorlikning 97 sentnerga oshishi tannarxni 2,3 punktga kamayishiga sabab bo'lган.

Olingen xulosalar asosida quyidagi takliflarni bermokchimiz:

1. Fermer xo'jaligi yer maydonlaridan ilmiy asoslangan holda maqbul ravishda foydalanishga e'tibor qaratish lozim. Hozirda yer resurslaridan maqbul ravishda foydalanishga amal qilishda ilmiy asoslanish darajasi past darajada qolmoqda.

2. Fermer xo'jaligida sabzavot yetishtirishni intensivlashtirishni kuchaytirib borish lozim.

3. Fermer xo'jaligida sabzavotchilikda hosildorlik oshgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich hali ham ishlab chiqaruvchilar uchun maqbul ko'rsatkich emas. 2012 yilda tuman fermer xo'jaliklarida hosildorlik 312 s/ga tashkil etgan. Ilg'or xo'jaliklar 350-360 s/ga hosildorlikka erishilgan bir paytda bu ko'rsatkich juda past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va ishlab chiqaruvchilar oldiga hosildorlikni yanada oshirish yo'llari qo'yilishi lozim.

4. Yangi navlar va texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu tarmoqda ishlab chiqarish xajmini oshishi hisobiga ishlab chiqarish rentabelligini oshirish.

5. O'tkaziladigan agrotexnik tadbirlarning mexanizasiyalashtirish darajasini oshirish orqali mehnat unumdarligini ko'tarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida. (yangi tahrirda). 26.08.2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Xorijiy investisiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-927. 24.07.2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-1112. 15.05.2009.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili Davlat dasturi to'g'risida. PQ-1474. 07.02.2011.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-1501. 11.03.2011.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010.
9. Karimov I. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 28.02.2010.
10. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliшlarga bag'ishlangan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi. 22.01.2011

11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.

12. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi: Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. 20.01.2012.

13. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. -№13, 19.01.2013..

14. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. 18.01.2014.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Nizomi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida.i - №54. 5.02.1999.

16. Dehqonov M. Fermer xo'jaliklarida tannarxni pasaytirish omillari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№ 5. -30 b.

17. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. – T.: Istiqlol, 2004.

18. Hasanov Sh.T. Sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirish. Avtoreferat. -Samarqand, 2006.

19. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

20. Mullajonov A. Meva-sabzavotchilik va sabzavotchilik sohasini rivojlantirish, ularni qayta ishlash va unda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha vazifalar. –Samarqand, 2009.
21. Murtazayev O., G'aniyev I., Hasanov Sh., Ahrorov F. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari. Samarqand, 2009.
22. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O.Q. Sabzavotchilik. Darslik. – T.: 2009.
23. Ostonaqulov T.E., Obloqulov D.D. Takroriy ekin sifatida pomidor yetishtirish texnologiyasi. –T.: 2008.
24. Qudratov T., Qudratova O., Fayziyeva N., Qudratova I. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. O'quv qo'llanma. –Samarqand, 2008.
25. Umrzoqov O'.P. va boshqalar. Fermer xo'jalik iqtisodiyoti. -T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
26. Xolmirzayev I. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2010. - № 2. -26 b.
27. Ergashev A. Fermer xo'jaliklarida resurslardan samarali foydalanish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2009. -№ 7. -26 b.
28. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011.
29. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, statistika bo'limi, Tayloq tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013 yillar hisobotlari.
30. Internet saytlari:
 - 31.1. www.prezident.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali
 - 31.2. www.lex.uz –qonun hujjatlari sayti
 - 31.3. <http://gov.uz/uz/press/economics/10255>. O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
 - 31.4. www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti
 - 31.5. www.edu.uz - Oliy ta'lim sayti
 - 31.6. www.ziyo.net – Ziyonet ta'lim portal

- 31.7. www.livestock.uz – O’zbekiston chorvachiligi sayti
- 31.8. www.samqxi.uz – Samarqand qishloq xo’jalik instituti sayti
- 31.9. www.usda.gov – AQSh qishloq xo’jalik departamenti sayti
- 31.10. www.uz.bir.uz, – Biznes informasion resurslar saytlari
- 31.11. www.uza.uz – O’zbekiston Axborot agentligi sayti
- 31.12. www.uzreport.com – biznes hisobot portali